

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**“ZAMONAVIY HIKOYACHILIKDA PSIXOLOGIZM
MUAMMOLARI”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O'zbek filologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Matkarimov Jo'rabek_____

ILMIY RAHBAR:
f.f.n., dots. Avezova G._____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014 yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOIYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:	dots. Abdullaev H.
Kafedra mudiri:	dots. Bobojonov F.
Ilmiy rahbar:	dots. Avezova G.

DAK Q A R O R I:

**ABDULLAYEVA ZUBAYDAning «Zamonaviy hikoyachilikda
psixologizm muammolari» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat
attestatsiyasi komissiyasi qarori bilan « » () bahosi qo'yilsin.**

DAK kotibi:

Qlichev N.

«____»_____ 2014 yil

REJA

KIRISH

I BOB. Xurshid Do'stmuhammad hikoyanavisligida psixologizm muammosi

- 1.1. Hikoyalarda ramziy obraz yetkchi unsur sifatida
- 1.2. Hikoyalarda ruhiy holat talqinlari va yozuvchi mahorati

II BOB. Nazar Eshonqul hikoyalarida bosh qahramon psixologiyasi

- 2.1. Nazar Eshonqul asarlarida modernism milliy talqinda
- 2.2. Xarakter yaratishda yozuvchi mahoratining o'ziga xosligi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Badiiy adabiyotda har qaysi janr o'z o'rnini, fayzi, ahamiyatiga ega. Lekin, hikoya janriga xos bo'lgan imkoniyatlar tufayli hamisha u nisbatan ko'p yaratiladi, ko'p e'lon qilinadi, binobarin, har bir milliy adabiyotning o'ziga xos kundalik nafasi, qadam olishi, mavqei hikoyada ko'proq namoyon bo'ladi.

Hikoya nisbatan ixcham va "tezpishar" janr hisoblansa-da, uning imkoniyatlari keng. Teatrning mo'jaz sahnasi yoxud gazeta-jurnalning kichkina sahifasi butun dunyoni o'zida jo etish imkoniga ega bo'lganidek, hikoyada ham istalgan mavzuni istalgan qamrovda, istalgan murakkablikda tasvirlash mumkin. Faqat bu muallifning mahoratiga bog'liq, ya'ni, u har bir hikoyaning o'z makoni, o'z zamoni, o'z badiiy realligini yarata bildimi, mazkur reallikka mos tasvir uslubi, tili, ohangi, o'ziga xos obrazlar silsilasini topdimi yoxud?. Bu qarashlar hikoya janrining o'ziga xosligini va g'oyat murakkabligini dalolatlaydi.

"Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi safida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarni yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan avval sezib, ularni tas'irchan obrazlar, yorqin badiiy bo'yoqlar orqali yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar deb bilaman"¹ Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ushbu fikrlar, shubhasiz, bugungi kunning dolzarb muammolarini va hayotning ajib jumboqlarini mohirona badiiylashtira olgan yozuvchilar haqidadir. Bunday yozuvchilar safiga esa X.Do'stmuhammad va N.Eshonqul kabi hikoyanavis yozuvchilarni kiritish mumkin. Ular ijodida turli yillarda xilma-xil va bir-biridan sermazmun hikoyalar yaratilganini guvohi bo'lamiz.

"Adabiyot-hayotning in'ikosidir" degan qoida yozuvchilarning ijodiy tajribasida juda ko'p shakllarda namoyon bo'ladi".² Yozuvchilar hikoyalarida ham, xuddi qissalarida bo'lganidek, hayot haqiqati ustalik bilan ochib berilgan.

¹ I.A.Karimov. Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T.: O'zbekiston, 2009 yil, 4-bet.

² Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. T.: "O'qituvchi", 1986 yil, 56-bet.

Hikoyanavislar hikoyalarda ko'tarilgan mavzuni tasvirlashda, xususan, hayotda uchrovchi illatlarni fosh etishda turli xil vositalaridan, shuningdek, ramziy obrazlardan va har xil majozlardan o'rinli foydalanadilar. Ularning ijodi hayot bilan hamnafas, rostgo'y, xalqchil va kurashchan nasrdir. Chunonchi, ular hayotning asl mohiyati haqida shu kungacha aytilmagan, lekin aytilishi shart bo'lgan teran fikrlarni topib, ularni mahorat bilan badiiy adabiyotda aks ettiradilar. Shuningdek, shu kungacha yaratilgan hikoyalarda ma'naviy-axloqiy, hayotiy muammolar ilgari surilgan. Boshqa janrlar kabi X.Do'smuhammad va Nazar Eshonqul hikoyalarini ham ma'naviyatni o'stirish vositasi sifatida qadriyatlar sirasiga kiritish mumkin. Zero, yurtboshimizning: "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarni, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"¹, - degan fikrlari bejiz emas.

Shu narsani alohida qayd etish kerakki, Qodiriy, Oybek, Ayniy, Cho'lpon, Fitrat kabi mashhur yozuvchilarimiz ham badiiy asar yozishga kirishishdan oldin, eng avvalo mavzu taqozosiga ko'ra, qalamga olinayotgan ma'lum tarixiy davrni chuqur ilmiy va huquqiy asoslarida o'rganib chiqqanlar.² Xurshid Do'stmuhammad va Nazar Eshonqul ijodida ham ko'rishimiz mumkinki, ularning bolalik kunlari, eshitganlari va ko'rganlari, umuman olganda ishonarli voqealar, hayotiy tasvirlar qalamga olinadi. Kitobning fazilati yozuvchilik san'atining asosiy va muhim tomoni sanaluvchi xarakter yaratish mahoratining tekshirilishida ko'rinadi. Xarakter yaratishda esa, albatta, inson ruhiyati masalasi asosiy unsur sanaladi. Mana shunday mehnat evaziga dunyoga kelgan asarlarning umri ham, qadri ham ulug' bo'ladi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti - zamonaviy hikoyanavislik tasvirlashning yorqin ifodasi sifatida, tadqiqot predmeti- ramz va timsollar orqali qahramonlar ruhiyatini yoritib berishning ahamiyati.

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T., «O'zbekiston» nashriyoti, 1997 yil, 9-bet.

² Sharq yulduzi. №5 2012 yil. 153-bet.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Ushbu BMI ning asosiy maqsadi - Xurshid Do'stmuhammad va Nazar Eshonqul hikoyalarini tadqiq etish orqali "psixologizm" masalasini o'rganish bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni joriy etish mo'ljallanadi:

- Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarida ramz va qahramonlar ruhiyatining o'ziga xosligini aniqlash;
- Hikoyanavislikda ramzli obrazlarning psixologik holati talqinidagi o'rni;
- Yozuvchi hikoyalarida o'ziga xoslikning qay darajada murakkabligi va muhimligiga ahamiyat qaratish;
- Nazar Eshonqul hikoyalarida qahramonlar ruhiyati va xarakteri talqinini ochib berish masalasini o'rganish;
- Hikoyalarda qahramonlar ruhiyati va harakterini ochishda ramzlarning o'rniga ahamiyat qaratish;
- Nazar Eshonqul hikoyalarida qahramonlar individualligini o'rganishdan iborat.

Ishdagi ilmiy yangiliklar va erishilgan natijalar. Mazkur bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundaki, Xurshid Do'stmuhammad hamda Nazar Eshonqul hikoyalarida psixologizm masalasi tekshirilmoqda. Ya'ni hikoyalarda qo'yilgan muammo, qanday ifoda etilgani va uning yechimi o'rganilgan. Shuningdek, qahramonlarning ruhiyati va xarakterini yaratishda ramzlarning o'ziga xos jihatlari ham tekshirilgan.

BMI da qahramonlar ruhiyati, shuningdek, ramzlarning o'ziga xosligi va uning badiiyatiga daxldor tafsilotlarga chuqur ahamiyat berish orqali yozuvchilar erishgan yutuqlar aniqlashga harakat qilinadi.

Ishning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishida zamonaviy hikoyanavislikda ijod qilayotgan yozuvchilardan X.Do'stmuhammad va N.Eshonqul ijodi misolida psixologizm masalasini hal etish va bu borada ramz va timsollarning o'rnini aniqlanganligi, shuningdek muayyan xulosalarga kelinganligi ushbu BMI ning amaliy ahamiyatidir. Bundan X.Do'stmuhammad va N.Eshonqul

ijodiyotiga bag'ishlangan kurs ishlarida, xususan, referat yoki BMI lar yozishda, dars jarayonida, shuningdek, yozuvchi ijodini o'rganishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi. Mazkur BMI kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. XURSHID DO'STMUHAMMAD HIKOYANAVISLIGIDA PSIXOLOGIZM MUAMMOSI

1.1. Hikoyalarda ramziy obraz yetkchi unsur sifatida

"Modern" istilohi 110 yildan beri o'z ahamiyatiga ega bo'lib kelmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda modern yo'nalishida ijod qilayotgan adabiyot ixlosmandlari hsam talaygina. Ularga qarshi fikr bildiruvchilar ham oz emas. Hatto eng kichik asarlar sarasida turuvchi hikoya janri misolida ham buni ko'rishimiz mumkin.

"Badiiy asar - insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin, uni birinchi galda inson sifatidagi o'y-fikrlari bilan yoritishi lozim."¹ Jumladan, hikoya - o'quvchini qahramonga ruhan yaqinlashtiradigan janr sanaladi. Hikoya yaratishda hech qachon hajm ahamiyatli emas. Kichik hajmli hikoyada ham butun bir davr muammolari va davr ruhi yoritilishi mumkin. Shu boisdan ham hozirgi adabiy jarayonda barcha janrlar kabi hikoya ham o'z o'rnini topayotgani kunday ravshan. "Hikoyachilik janrining badiiy takomiliga xos belgilardan biri shundan iboratki, yozuvchilarimiz yuzaga kelgan ijodiy erkinlik tufayli, noan'anaviy ko'rinishdagi, yangi tipdagi qahramonlarni, o'ziga xos milliy xarakterlarni adabiyot maydoniga olib kirdi".² Hikoya janri haqida so'z ketganda dastavval A.Qahhor hikoyalari va A.Qahhor siymosi ko'z oldimizda gavgdalanadi.

Bugungi kun o'zbek nasrida va ayniqsa, hikoyanavislik borasida bir qator yozuvchilar qatorida Xurshid Do'stmuhammadning ham o'rni o'zgachadir. U o'z uslubiga, betakror tiliga ega ekanligini hozirda uning kitobxonlari, muxlislari tan olishadi, asarlarini sevib o'qishadi. Adabiy tanqidchilikda ham uning asarlari xususida turli xil ijobiy fikrlar bildirilmoqda, anjumanlarda bahs-munozaralarga sabab bo'lyapti. Adib asarlarining badiiy xususiyatlari to'g'risida talaygini ijobiy fikrlar bildirish mumkin. X.Do'stmuhammad uslubining o'ziga xosligi,

¹ Belinskiy V.G. Adabiy orzular. -T.: Adabiyutva san'atnashrieti, 1987. 11-bet

² G.Sattorova. "90-yillar o'zbek hikoyachiligi milliy xarakter muommosi".T.,2002,3-bet.

qahramonlarining hayotiyligi uning asarlarini o'qimishliligi va yuqori saviyadiligining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad (Xurshid Do'stmuhammedov) 1951-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. O'rta maktabdan so'ng Toshkent Davlat universiteti (hozirgi O'zMU) Jurnalistika fakultetini tamomlagan (1968-1973). Hozirgi kunda filologiya fanlari nomzodi, olim. U "Fan va turmush" jurnalida bo'lim muharriri (1973-1984), "Yosh kuch" jurnallarida bo'lim muharriri, bosh muharrir o'rinbosari, bosh muharrir (1986-1995), "Hurriyat" mustaqil gazetasiga bosh muharrir (1987-2002), O'zbekiston Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi hamrosi (1997 yildan hozirgi kungacha), "O'zbekiston matbuoti" jurnali bosh muharriri (2002 yildan hozirgacha) lavozimlarida ishlab kelmoqda.

1980-yildan buyon matbuotda hikoya va qissalari, roman, ocherk, badia, adabiyotshunoslikka oid maqolalari bilan qatnashib kelmoqda. Uning "Hovli etagidagi uy" qissa va hikoyalar to'plami (1989), "Jajman" qissa va hikoyalari (1995), "Qazo bo'lgan namoz" (1996), tarixiy hikoyalari, "Hijronim mingdir mening" (2000) qissa va hikoyalar jamlanmasi, "Bozor" (2000) romani, "Hamid A'lamovning aytolmagan gaplari" (2002) xotira-badiasi, "Beozor qushning qarg'ishi" (2008) hikoyalar to'plami, "Ijod-ko'ngil munavvarligi" (2011) nomli ijod namunalari chop etilgan.

U juda mohir yozuvchilardan biri bo'lib, yaratgan asarlarining, xususan, hikoyalarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Uning, ayniqsa, "Jajman", "Nusxakashning merosxo'ri", "Jimjitxonaga yo'l", "Oqimga qarshi oqqan gul" hikoyalari shular jumlasidandir. Shuningdek, uning "Yolg'izimsiz" nomli hikoyasida qahramonlar ruhiyati o'ziga xos tarzda qalamga olingan. Uning asarlarida insonning nechog'lik murakkab mavjudot ekanligini ko'rishimiz mumkin. Hikoyachilikda ifoda etiladigan har qanday fikr, inson qalbi kechinmalarining tasviri, ruhiyat tasvirining o'ziga xosligini doimo kuzatib kelayotgan X.Do'stmuhammad hozirda o'zining aniq yo'nalishiga egaligini aytib

o'tish joiz. Haqiqatdan ham uning hikoyalari mazmunan turfa bo'lishiga qaramay barchasida chin insoniy fazilatlar ulug'langan.

Xurshid Do'stmuhammad bugungi kunning og'izga tushgan, ulkan iste'dod egasi bo'lgan, izlanuvchan yozuvchilardandir. Adib aytmoqchi bo'lganlarini to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ishoralar, ramzlar va misollarga murojaat qilish orqali badiiy asar darajasiga yetkazadi va shuning uchun ham ushbu ijodi ahamiyatlidir. Xurshid Do'stmuhammad hikoyanavislikda ancha yutuqlarga erishgan. U insondagi yomon illatlarni qoralab, ularni yaxshi fazilatga aylantirish uchun badiiy asarga murojaat qilayotgan, izlanuvchan yozuvchidir.

X.Do'stmuhammad adib, publitist, olim sifatida hozirgi adabiy jarayonda o'z o'rniga ega. Shu bilan birga uning ilmiy izlanishlari ham ahamiyatlidir. "X.Do'stmuhammadning ilmiy izlanishlariga xos jihat ularda yozuvchi nazari yaqqol sezilib turishida. X.Do'stmuhammad o'zi tekshirayotgan asarga professional yozuvchining ko'zi bilan qaraydi va ko'rganlarini professional adabiyot tanuvchining fikri bilan izohlay oladi."¹ Shuning uchun ham uning asarlari va u bildirgan fikrlar ahamiyatli va o'rindir. Ilmiy izlanishlarida ham har bir ijodkorni mukammal darajada o'rganadi, ya'ni ijodkorning shaxsi, ruhiy olami, uning ijodining mazmun mohiyatini o'zgacha bir yondashuv bilan o'rganadi, tahlil qiladi, xolis fikr bildiradi.

Shuningdek yozuvchi, jumboqli hikoyalar yozishni ma'qul ko'radi. Qaysi ma'nodakim uning hikoyalarida ramz va qahramonlar ruhiyati bir-birini to'ldirib, o'zaro mutanosiblikda keladi. Ushbu yozuvchi ijodida "badiiy obraz" ko'p o'rinda "ramzli obraz" sifatida talqin qilinadi. Badiiy obrazning xususiyatlari haqida so'z ketganda birinchi galda individuallashtirilgan umumlashma sifatida namoyon bo'lishi xususida to'xtalish zarur.² Badiiy asarda ijodkor o'z maqsadiga qachonki, xarakterni mohirona va o'zi o'ylagandek yoritgandagina erishishi mumkin. Xarakter kichik bir she'rdan tortib katta-katta epopeyalarda ham namoyon bo'lishi

¹ Sharq yulduzi. №3 2012 y. 120-bet.

² Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. T., 2004-yil, 64-bet.

shartdir. Haqiqatdan ham, ko'p xollarda X.Do'stmuhammad hikoyalarida obrazlarni umumlashtirilgan holda ko'rishimiz mumkin. Hikoyalardagi obrazlarning umumlashtirilganligini ramz va ruhiyat tasvirining o'zaro mutanosib tarzda berilishidan bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham X.Do'stmuhammad hikoyalarida ruhiyat tasviri ko'p hollarda obrazlar individualligi orqali ifodalanadi-desak, xato bo'lmaydi. Uning hikoyalaridagi qahramonlarning dunyoqarashi o'zgachaligi va ularning tabiatidagi davrga xoslik yaqqol ko'zga tashlanadi. Yozuvchining ruhiyat tasvirini ifodalashda ramzlardan mohirona foydalanishi orqali yaratilgan asarlaridan biri sifatida - "**Jajman**" hikoyasini keltirishimiz mumkin. "Jajman" hikoyasini yozishda yozuvchi falsafiy dunyoqarashga tayanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Jajman, u kim yoki nima-? Bu savol nafaqat kitobxonlarni, balki butun adabiyot ixlosmandlarini qiziqtirib qo'ydi. X.Do'stmuhammad hikoyasida roviy mistik kuch, qahramonlar ko'ngliga qo'rquv urug'ini qadovchi pinxoniy jajman.¹ "Jajman" so'zning ma'nosi hali-xanuz muallifning sof jumbog'i bo'lib qolmoqda. Buning sababi, muallif hikoyalarida real va noreal hayot birga, uyg'unlikda tasvirlashi bo'lsa kerak.

Ushbu hikoya milliy hikoyanavislik yutug'i sifatida ye'tirof yetilib, u haqda ko'plab fikr-mulohazalar bildirildi. «Jajman»ga taqlidan boshqa hikoyalar ham yozildi. Har kimga ayonki, badiiy jihatdan pishiq asarlar turfa talqinlarga imkon tug'diradi. «Jajman» X.Do'stmuhammadning bozor mavzusiga bag'ishlangan ilk asarlaridan biri. Albatta, adib asarlaridagi bozor - jamiyat ramzi. Jamiyatning ko'plab muammolari bozorda bo'rtib ko'zga tashlangani uchun ham yozuvchi mazkur mavzuga ko'proq murojaat qilayotgandir.

«Jajman» hikoyada yuho nafs timsolidir. Oldin uni beozor maxluq ko'rib, yerik bergan odamzod so'ngra dahshatga tushadi: «Shuni o'ldirib, tinch yashaylik!» Biroq, jajmanni, ya'ni jamiyatda hakalak otib ketgan baloi nafsni o'ldirish osonmi?! Ilk bor 1989 yilda e'lon qilingan hikoyada umumning kurashga safarbar

¹ 2013 yil, 22-fevral. №8 (4199) 3-bet

etilishi natijasida «o'ldi», deb hisoblangan jajmanning ikki barobar kattalikda tirilib kelishi go'yo adabiy bashorat bo'ldi.

«Umr-sinov. Sinov kuchalari notekis. Noayon. ular odamni gox farogat boglarining nash'u na'mosiga tuydiradi, gox uqubat saxrosida sarsonu sargardon qiladi. Xar ikki xolatda xam insonning sabri, nafsi, tokati imtixonidan utadi.

Jonzot borki, yaxshiroq va osonroq yashash ilinjida nafas oladi. Xayvonning xayvonligi nimaning evaziga nafsini kondirayotganini uylamasligi, bu xakida muloxaza yurita olmasligi bilan belgilanadi. Yirtkichlar akidasi-na tugishganini bilish, na kavmning, na uzganing xakini farkiga borish, zero, o'lja olinsa, gajilsa bas! Bunday mayl moxiyatan inson uchun xam begona emas. U ham tirik jon. U xam uzi, oilasi tukrok, faravonrok yashashini kuzlab tinim bilmaydi. Uzini utga, chukka uradi. Xalovat ilinjida xalovatidan kechadi. Fakat ana shu farogatini, xalovatu ma'murchilikni nimalarning, kimlarning evaziga topayotganiga ko'ra hayvondan va xatto boshqa odamlardan ajralib turadi.

"Halol" va "harom" tushunchasi ayni shu mayllar asosida shakllangan bulsa, ajab emas»¹.

Hikoyada keltirilgan odamlar bilan jajman o'rtasidagi munosabat go'yoki, Axuramazda va Axriman o'rtasidagi kurashga ishora sifatida keltirilgandek. Zardusht bobo rastasi yoniga to'shalgan ko'rpachaga o'bdon joylashib cho'k tushayotib, bir narsadan xavotirlangandek: "O'zing madadkorsan, Axuramazda..." dedi shivirlab.¹ Hikoyada birgina Jajman obrazi orqali insonga xos bo'lgan ayrim salbiy holatlar, ojizlik jihatlari ham real tasvirlarda o'z ifodasini topadi. Ojizlik jihatlari deganimizda insonlarning gohida sinovlar oldida ilojsiz qolishlarini nazarda tutyapmiz. Sababi, hikoyada timdagi odamlar ham ilojsiz va ojiz qoladilar. Hikoyaning mohiyati inson bor ekan, albatta, oq va qora, yaxshilik va yomonlik kabi qarama-qarshiliklar mavjud bo'ladi degan tushunchani ochib berishda ko'rinadi. Hikoya sarlavhasining o'ziyoq kitobxonni qiziqtirib qo'yadi. Nima uchun

¹ Do'stmuhammadov Xurshid. Iztirobb ijodkor, hayut. www.forum.uz

¹ X.Do'stmuhammad. "Beozor qushning qarg'ishi", Toshkent, 2006 yil, 137-bet.

hikoya bunday nom oldi-? Tadqiqotchi olimlar ham bu masala borasida ko'p mulohazalar yuritishgan.

N.Dovurboyeva Jajman atamasini “jajji” hamda “ya'juj- majuj”dan yasalgan, qabilida tahmin qiladi. Har xolda, uning izlanishlari e'tiborga loyiq. Ana shu yo'nalishdagi kuzatuv usullarini Ulug'bek Hamdam, Jabbor Eshonqul, O'rol Sodiq kabi adabiyotshunoslar tadqiqotlarida ham uchratamiz.¹

Har kim bilganicha jajman so'ziga ta'rif berib o'tdi. Biz ham bu masala yuzasidan o'z fikrlarimizni bildirib o'tamiz. Atrofimizdagi insonlar o'rtasida jlovchi va ylovchi sheva vakillari ham uchrab turadi. Issiq nonning orasini ajratib olib, unga saryog'ni **aralastirib** iste'mol qilishni “**yajman**” deb atashadi. O'z-o'zidan yajman va jajman o'rtasida qandaydir bog'liqlik bordek tuyuladi. Sababi, yozuvchi tulki, sichqon, olmaxon, kenguruning ko'rinishini aralastirib, jajman ko'rinishiga olib kelgan. Shuningdek, “**jajman**” va “**jajji man**” so'zlari orasida ham o'xshashlik borligi seziladi. Sababi, jajman haqiqatdan ham juda kichkina, atigi bir qarich. Lekin, hikoya so'ngida ikki qarich jajmanning paydo bo'lishi bu taxminimizni inkor tomoni. Biz xohlaymizmi, yo'qmi “Jajman” hikoyasi ham o'xshashliklardan holi emas. Masalan, Alisher Navoiyning “Xamsa”sidan joy olgan, "Saddi Iskandariy" dostonining “Iskandar devorining qurilishi” deb nom olgan qismida devsifat **Ahraman** va yebto'ymas mahluq - **ya'juj-majujlar** keltirilgan. A.Navoiy ularni “biri bir qarish bo'lsa, yana biriniki o'n quloch”²- deya ta'riflaydi. X.Do'stmuhammad ham jajmanning bir qarich ekanligini qayd etadi. Bu o'z-o'zidan har ikkala ijodkorning bir mahluq haqida fikr yuritayotganini belgilaydi.

Hikoyada ramzli obrazlar mahorat bilan tanlangan har bir obrazning ramzliligi uning ruhiyatini ham ochib bergan. Ba'zi bir obrazlar asarda salbiy obraz sifatida tasvirlanishiga qaramay, aslida u asar mohiyatini va g'oyasini tashkil etishda asosiy yuk tashishi mumkinligini muallif aynan, "Jajman" obrazi orqali

¹ 2001 yil, 7 dekabr, № 51 (3636).

² A.Navoiy. Xamsa.Toshkent., "Yangi asr avlodi", 2010 y.

ifodalashga harakat qilgan va bunga erishgan ham. Bu obrazni bir qarashdayoq nimaning ramzi ekanligini bilgandek bo'ladi kitobxon, chunonchi, u ochko'zlik, tekinxo'rlik nafs ramzi, bir so'z bilan salbiy obraz deyish mumkin. Karashlarimizning lekin tomoni ham borki, jajman o'z ko'rinishi orqali sotuvchi va xaridorlarni ogohlantiryapti, yaxshilikka, halollikka chaqiryapti. Bu esa obrazning ijobiy tomoni va yozuvchining ramzli obraz yaratishda alohida mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Hikoyada Jajmaning o'lish jarayonini eslab ko'raylik: - Yomonning kuni bitdi, birodarlar!.. Jajmaning qopchig'idan qolgan-qutgan mayiz, pista qoldiqlari to'kildi. Olomon uni ko'rib kulib yubordi, biroq shu payt... Jajman tilga kirdi:

-Lo... kila!.. Lokil... la!..¹

Yuqorida aytganimizdek Jajman ushbu so'zlari bilan tim ahlini ogohlantiryapti. O'zi jonsiz bo'lsa-da, lekin tilga kirgan Jajmani ko'rgan timdagi barcha toshdek qotgan edi. Bu kalimadan hangu-mang bo'lganlarning og'zida bir so'z edi: -Zardusht, Zardusht bobo! Bu bir kalima hech qanday ma'no anglatmaydimi? Teskarisiga o'qib ko'raylik: "al...likol! Alik... ol!" Demak, u bozor ahliga salom beryapti. Chunki salom bergangina "alikal ol" deyishga haqli. U o'zini tanishtirmoqda va boshqalarni-da taniganini ma'lum qilmoqda.² Alik olish orqali Jajman odamlarni ogohlantirish bilan birgalikda ularni qay daraja tumanlashib, nohaqlikka yuz tutib borayotganliklarini ham eslatib o'tyapti. Muallif o'z maqsadini amalga oshirishda nafaqat Jajman obrazi, balki Zardusht va Otash momo obrazlaridan ham unumli foydalanadi.

Zardusht bobo esa loqayd, bu holni ko'ra-bila turib beparvo tomosha qiladi... Jajmaning ochko'zligiga mahliyo bo'lib, unga qarshi kurashishni xayoliga ham keltirmaydi. Zardusht boboda kurashchanlik yo'q, faqat nima qilarini bilmay hayron bo'lib turaveradi. Birovning rizqiga qo'l cho'zgan kishiga bunday

¹ Beozor qushning qarg'ishi. X.D Sharq 2006. 154-bet.

² 2001-yil, 7-dekabr, №51 (3636) O'z AS.

munosabat Zardusht bobo kabi loqayd odamlarning qon-qoniga singib ketgan.¹ To'g'ri, bir qarashda juda loqayd va o'zi bilan o'zi ovora, beparvo ko'rinadi bu obraz. Lekin har bir obrazning o'z yuki va vazifasi bo'ladi. Nazarimizda, muallifning Zardusht boboga bergan ruhiyat tasvirini bunday sovuqqonlik bilan baholash kerak emas. Sababi, Zardusht bobo ming yil yashagan odam. U razilliklarni ham, ezguliklarni ham ko'rib, allaqachon qanday xulosa chiqarish kerakligini anglab yetgan odam. U paydo bo'lgan birinchi jajmanga hech qanday chora ko'rmaganligining sababi ham aynan shunda. U biladiki, agar birini o'ldirsa, tabiiyki ikkinchisi, albatta, paydo bo'ladi. Bu esa Axuramazda va Axrimanning kurashini esga soladi.

Zardusht boboning yoshligida cho'pchaklar aytib uxlatadigan Otash momo obrazi ham ramziy obraz. Otash so'ziga izoh berib o'taylik. Otash- bir so'z bilan aytganda olov. Zardushtiylik dinida olovga sig'inishgan. Muallif shu yerda so'z o'yinidan samarali foydalangan. Nima uchun yozuvchi bu nomni timdagi biror xaridor yoki jabrlanuvchiga emas, aynan Zardusht boboning momosiga berdi-? Sababi, momoning yoshi undan katta va ular sig'inadigan Zardushtiylik dinida ham olov muqaddas sanaladi.

Xurshid Do'stmuhammad "Jajman" hikoyasidagi obrazlar talqini orqali ijtimoiy hayotdagi asosiy illat bo'lgan nafs buzulishni va u orqali kelib chiqadigan boshqa illatlarni ko'rsatib bera olgan. Va asarni o'ziga xos nihoyalash orqali bu maqsad yanada aniqroq uddalangan. Hikoyani Jajmanning o'ldirilishi bilan ham tugasa bo'lardi. Agar hikoya Jajmanning o'ldirilishi bilan tugaganda ayrim kishilar nafsibuzulish va tekinxo'rlikning ildizi bilan yo'q qilish mumkin deb o'ylashardi. Hikoya so'ngida o'sha bir qarich mahluq ikki qarich shaklida paydo bo'ladi. Bu yerda nafsibuzulish va tekinxo'rlik tarafdorlari va talabgorlari ko'paysa ko'payadiki, aslo kamaymaydi, degan xulosa chiqadi. Mana shunday tugallik orqali yozuvchi kitobxonlarga o'z savolini bermoqchi bo'ladi, "ya'ni hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz"? Ushbu hikoya yuzasidan fikrimizni xotimasi sifatida aytib

¹ 1990-yil, 21-sentyabr, № 36 (3090).

o'tishimiz lozimki, hikoya obrazlari to'laqonli ramz va ishoralarga boy. Aynan shuning uchun ham qahramonlar ruhiyatini ochish yozuvchi uchun ham, kitobxon uchun ham zavqlidir. Yozuvchining mana shu hikoyasi bilan odatdagi yo'ldan yurmaslik kerakligini eslatib o'tganday bo'ladi. Xurshid Do'stmuhammad haqiqatdan ham, ijodi orqali obrazlarni xarakterlash, ularning xatti-harakatlariga mos detallardan foydalanish, real hayotiy voqelikni jonli qilib aks ettirish kabi usullarni qo'llash orqali ancha muvaffaqiyatga erishgan. Bu jihatni uning ijodiga bir nazar tashlagandayoq sezish mumkin. X.Do'stmuhammad ijodida qisqa va aniqlilik doimo ilgari suriladi.

Ko'rib turganimizdek, muallif qahramonlarni hech birini bejiz, shunchaki tanlamagan. Qahramonlarning xarakter tuzilishidagi bir-biridan yiroqlik go'yo bir-birini to'ldgandek bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, hikoyada kiritilgan qahramonlarlar o'rtasidagi munosabatlar xoh samimiy, xoh salbiy bo'lsin asar haqiqatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Yuqorida ko'rib chiqqanimiz momoning rivoyati esa muallifning hikoya uchun ajoyib tanlovi hisoblanadi. Buni birgina o'zbek adabiyoti misolida ko'radigan bo'lsak, Abdulla Qaxxor, O'tkir Xoshimov va Chingiz Aytmatov ijodida ham kuzatish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Xurshid Do'stmuhammad ijodining asosiy yutug'i va qahramonlar ruhiy holatini tasvirlashdagi o'zgachalikning belgisi, u bunda ortiqcha tafsilotlarga berilmasdan ularni real-hayotiy tasvirlaydi. Shuning uchun ham yozuvchining asarlaridan hayotiylik ufurib turadi. Xurshid Do'stmuhammad badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish va uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun badiiy psixologizmdan badiiy unsur sifatida foydalanadi. Badiiy psixologizm - bu personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti-harakatlari, gap-so'zlarining psixologik jihatdan asoslanishi ekanligini yozuvchi yaxshi biladi. Uning asarlariga nazar tashlaganimizda muallif asarni o'zidan kelib chiqib yaratsa qanchalik saviyali va qanchalik ishonchli bo'lishiga guvoh bo'lamiz.

Xullas, X.Do'stmuhammad yaratgan obrazlar va ularning ruhiyat tasviri betakror. Yozuvchining yaratgan har bir qahramonidan kitobxon nimanidir olishga va nimadandir voz kechishga harakat qiladi. Chunki, yozuvchi badiiy asoslashni va bu boradagi badiiy detallarni juda o'rinli qo'llaydi. Shu boisdan ham X.Do'stmuhammad asarlarni o'qigan kitobxonda voqealar real hayotda yuz berayotgandek tasavvur qoldiradi. Adib xalqimizning adabiy-estetik ehtiyojini qondirishga shuningdek, ijtimoiy-estetik didni o'stirishga intilib kelayotgan iste'dodli ijodkorlardan biridir.

1.2. Hikoyalarda ruhiy holat talqinlari va yozuvchi mahorati

X.Do'stmuhammad ijodida hikoyalarning o'rnini alohida. Sababi, muallif hikoyalardagi qahramonlar real voqelikda harakatlanayotgan, ayni damda biz bilan yashayotgan insonlardir. Shu o'rinda yozuvchining mahorati ham ana shu qahramonlarni yaratishda ramzlardan unumli foydalana olishidadir. Yozuvchining asari to'g'risidagi har bir qarash uning so'zni to'g'ri qo'llay olish mahoratidan dalolat beradi. X.Do'stmuhammad yaratgan asarlarida to'g'ridan-to'g'ri tasvirga o'tib, ortiqcha tafsilga yo'l bermaydi. O'quvchi ham qisqa satrlarda muallifning maqsadini ilg'ay oladi. Bu esa o'quvchini zerikishini oldini oladi. N.G.Chernishevskiy ta'kidlaganidek, "...agar asarda tasvirdan ko'ra tavsif cho'zilib ketsa, bu mahorat belgisi emas. Aniq, badiiy bunyodkorlik badiiy asar tilining birinchi belgisidir"¹. X.Do'stmuhammad ijodida bu yetakchi xususiyat sanaladi.

"Yozuvchi qahramonlar taqdirini, hayotdagi chigalliklarni shunchaki ifoda etish bilan cheklanmaydi, balki hayotning ma'nosini chaqishga intiladi."². Ushbu ta'rif Umarali Normatov tomonidan P.Qodirovga nisbatan bildirilgan bo'lishiga qaramay, u bizning nazarimizda X.Do'stmuhammad ijodiga ham taalluqliligi bilan ahamiyatli. Sababi, yozuvchi X.Do'stmuhammad ijodida ham qahramonlar masalasi shunchaki ifodalanilmaydi. U ramzlar orqali qahramonlarning ruhiy holatini ochishga va bu orqali hayotning ma'nosini chaqishga intiladi.

Yuqorida X.Do'stmuhammadning juda ko'p olim, adabiyotshunos va kitobxonlarning e'tiborini tortgan ijod namunasi bilan tanishdik. Haqiqatdan ham bu hikoya haqida juda ko'p fikr va qarashlar berilgan, har xolda bu qarashlar e'tiborga olinishi lozim. Ana shunday qarashlarni yuqorida aytib o'tganimizdek Ulug'bek Hamdam, Jabbor E'shonqul, O'rol Sodiq kabi adabiyotshunoslar tadqiqotlarida ham uchratishimiz mumkindir. Lekin, o'sha tanqidchilar

¹⁴ CHernishevskiy N.G. Poli. sobr. sochinenie. -M: Isskustvo, 1978. str. -34.

² U.Normatov.Yetuklik,T. 1982., 201 – bet.

maqolalarida ham izchillik yetishmaydi. Izchillikning yetishmasligiga sabab, ularning ko'p tanaffus olishlaridir, ya'ni oylab, yillab bu mavzuga qaytishmaydi.

Xurshid Do'stmuhammad asarlarining ichida aynan mana shu hikoya uni yozuvchi sifatida tanitgan va kitobxonlarni unga bo'lgan ishonchini orttirgan asardir. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hikoyada yozuvchi davr muhitini ochib berishda obrazlar ruhiyatidan, obrazlar ruhiyatini ochishda esa ramzlardan o'rinli va salmoqli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ham o'z o'rnida boshqa yozuvchilarda doim ham takrorlanavermas alohida bir jihat hisoblanadi.

Umuman, badiiy asarni o'qish va uqish uchun insondan ulkan sabr talab qilinadi. Xulosa chiqarishda esa o'sha sabr kuchi sinaladi. Davra suhbatlarida yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning badiiy adabiyotga murojaat qilish borasida quyidagicha fikrlashining guvohi bo'lganmiz: *“Maqsad bitta-yozganlarimni o'qigan inson bir lahzaga bo'lsa ham yaxshi bo'larmikan? Badiiy adabiyot shunga yordam berarmikan, degan umid bor qalbmida!”* Keltirilgan fikrlardan yozuvchining faqatgina shunchaki yozmay, balki o'z oldiga maqsad qo'yib, ana shu maqsadni amali uchun badiiy adabiyotga murojaat qilishi oydinlashadi. Yozuvchi Xurshid Do'stmuhammadning “Beozor qushning qarg'ishi” nomli hikoyalar to'plamidan joy olgan “Nusxakashning merosxo'ri” hikoyasi ham tarbiyaviyligi bilan ahamiyatlidir.

Aytib o'tish joizki, asarning sarlavhasi ma'lum darajada asarning keng targ'ib qilinishi va eng asosiysi, o'z ahamiyatini topishida muhim o'rin tutadi. Ushbu hikoyani o'qishni boshlagan kitobxon nazarida nima uchun hikoyaga “Rassomning merosxo'ri” emas, balki “Nusxakashning merosxo'ri” deb nom berilgan degan savolning paydo bo'lishi tabiiy. Hikoyada yetti o'g'il-qiz orasida ota kasbi faqatgina unga yuqqan Nuriddin haqida so'z boradi. Nuriddin tarbiyani oilaning bosh mezoni deb biluvchi oilada o'sadi. U xuddi otasi kabi rassom bo'lishni, rassom bo'lganda ham taniqli rassom bo'lishni juda xohlaydi. Yoshligidanoq qo'lga mo'yqalam ushlashi uni ana shu maqsadi sari yetaklaydi. Xuddi otasi kabi rassom bo'lish uchun yillarning o'tishi, tajriba va malaka orttirilishi, kasbga

bo'lgan muhabbat va asosiysi, rassomchilik kasbining kaliti bo'lmish sabr va sinchkovlik kabi xususiyatlarni tezda egallab olgisi keladi. Kitobxon asarni o'qish davomida Nuriddin o'zi orzu qilgan rassom bo'lishiga ishonadi. Chunki, muallif tomonidan Nuriddinga berilgan tavsif uning naqadar iqtidorli ekanligiga ishora edi.

Nuriddinning otasi Odil rassom obrazi asar saviyasi va ko'lamiga o'z ta'sirini o'tkaza oladigan darajada. Odil rassom o'lguday tajang odam edi. Goho qizlari, o'g'illari ustaxonaga chiqib, atrofida aylanaverishsa birdan tutaqib ketar, "Qani marsh-sh!" deb qatorasiga quvib solardi.¹ Yozuvchi har bir obrazning ruhiy olamini yaratishda uning xatti-harakatlari va odatlarini hech qachon chetlab o'tmaydi. Shu bilan birga obrazlarning kamchiliklari, o'rnak bo'larli jihatlari, turli xil yoqimsiz holatlarini-da e'tirof etadi. Xuddi shunday X.Do'stmuhammad ham aynan mana shu obraz xususida kerakli ta'rifni berib otganki, bu bilan uni ko'z oldimizda gavdalantira olamiz.

Mevali daraxtga hech qachon tosh otilmay qolmaydi. Shu o'rinda aytish joizki, bu hikoya ham o'z bahosini topish davomida turli hil fikr va qarashlarga uchradi. "To'plamdagi "Nusxakashning merosxo'ri" hikoyasida hayoti fojeali burilish pallasini kechirayotgan shaxsning murakkab, tahlikali holati ancha mahorat bilan aks ettirilgan. Badiiy ijod nusxa ko'chirish ham, yashash vositasi ham emas, balki yurakdagi dardni ifodalash ekanligi murakkab taqdirli qahramonlar misolida ko'rsatilgan. Lekin bir narsani taassuf bilan aytish joizki, hikoya zavq bilan o'qilmaydi, qahramonda insoniy joziba, kishi ruhiyatiga kirib boradigan yorug'lik sezilmaydi².

Xurshid Do'stmuhammad hikoyalarini kamchiliklardan holi deb bo'lmaydi, albatta. Lekin bizningcha, muallifning ushbu hikoyasi Qozoqboy Yo'ldoshev aytganidek, zerikarli, zavq bilan o'qilmaydigan hikoya emas!

Birinchidan, olim aytganidek, hikoyada hayoti fojeali burilish pallasini kechirayotgan shaxsning holati tasvirlangan. Bu holatni kitobxonga yetkazib berish

¹ Xurshid Do'stmuhammad. "Beozor qushning qarg'ishi", T.:2006. 180-bet.

² Qozoqboy Yo'ldoshev. "Yoniq so'z", -T.; 2006, 137-138-betlar.

va kitobxonning qiziqishini orttirish uchun hikoyaga biroz hajviya aralashtirish tanqidchining fikrini inkor qilardi, ya'ni tahlikali holat mahorat bilan aks ettirilmay qoladi.

Ikkinchidan, hikoya o'quvchini biroz mulohazaga tortadi. Ya'nikim, Nuriddin xolstdagi portretlarni o'chirar ekan, o'quvchi tasavvurida hozir Mirjalol tog'aning portreti chiqib qolsa-ya, degan taxminning paydo bo'lishi tabiiy hol. Bu holat esa kitobxonning asarni diqqat bilan o'qishiga sabab bo'ladi.

Otasi Odil rassomning vafotidan ta'sirlangan Nuriddin qaytib o'sha xonaga kirishni o'ziga taqiqlaydi. Otasi uning hayotida juda katta ahamiyatga ega edi. "Tadbirkorlik, biznes" degan tushunchalarni o'ziga kasb qilib oladi. Bu sohada omadi kelishi uchun yo'lida uchraganni o'ziga pir deb biladi. Kuntunbey bilan bo'lgan suhbat uni butkul yo'ldan uradi. Hatto, otasidan unga meros qolgan xonani yoqib yubormoqchi ham bo'ladi. Aldanganini tushunib yetgan Nuriddin bir marakada uzoq qarindoshi Mirjalol tog'aning gaplaridan ta'sirlanib yana ota kasbiga mehr qo'yadi. Insonlar bir narsadan ko'ngli qolsa, qaytib unga mehr qo'yishi qiyin bo'ladi. Mana shunday toifa vakillaridan biri sifatida Nuriddin obrazini ham olishimiz mumkin. Kutilmaganda otasining o'limidan dovdirab qolgan Nuriddin, otasi bilan bog'liq vaziyat va holatlardan o'zini olib qochdi. Shu bilan birgalikda endi Nuriddinning nazarida dastgoh omonatdek, mo'yqalam esa titilib ketadigandek, bo'yoqlar ham rangsizdek tuyuladi. Bu tuyg'ular uning qalbida kechayotgan qo'rquvning izlari edi. Nuriddin otasining "Men rassom emasman, nusxakashman" degan gaplarini eshitgandagina "rassom" va "nusxakashning" farqiga borgan edi. Mana shu yerda hikoyaning sarlavhasi o'z javobini topadi. Nuriddin qo'lga dastlab qalam olgan vaqtlarida tasavvuriga kelgan narsalarnigina chizar edi. Ana shunda otasi unda nusxakash emas, balki rassom bo'lishga ko'proq moyilligi borligini sezgan edi. Bir kuni otasiga "nega faqat odamlarning rasmini chizasiz", degan savoli javobsiz qolgan edi. Bugun esa o'sha savol o'z javobini topgan edi: "Dengiz, o'rmon, osmonni chizing deysan... Nur, ustaxonaga qamalib olib qiladigan hunarimni faqat sen bilasan. Uni sen

o'rganding. Men senga rassomlikni emas, nusxa ko'chirish hunarimni o'rgatdim... Ushbu fikrlar har qanday inson qalbini larza sola oladi. Ayniqsa, Odil rassomning quyidagi so'zlarida o'z kasbiga bo'lgan nafrat va ishonchsizlik yaqqol tasvirlangan. "Lekin bir narsani bilib qo'y, men chizgan mana bu nusxalar bor-ku, shular dunyodan o'tgan zahoti menga o'xshash nusxakashni rassom o'rnida osmonga ko'tarayotgan zamonning ham dumi tugiladi... Nur. Sen ko'chaga chiq, odamlarga aralash, hayotning ichida yur, negaki dengiz, o'rmon, osmon tashqarida, ustaxonada emas..."

Yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini ochiqdan-ochiq emas, balki ishora bilan ifodalagani hikoyaning salmog'ini yanada oshirgan. "Nuriddin ro'parasida paydo bo'lgan otasining sharpasi ildam yurib kelib, uning qo'lidan ohista tutdi-da, xayol girdobigan chiqib ketolmayotgan o'g'lini eshik tomon yetakladi..." Ushbu fikrlar Nuriddinning otasi kabi nusxakash emas, balki chinakam rassom bo'lishiga ishora qilmoqda. Demak, nusxakashning merosxo'ri Nuriddin nusxakash emas, balki endilikda u rassomdir. Ushbu hikoyani o'qish har bir kitobxonga o'z kasbini va hayotdagi maqsadini to'g'ri tanlashida yaqindan yordam beradi. Yuqorida yozuvchi aytgani kabi badiiy adabiyot orqali insonlar qalbiga ta'sir qilish bu ijod ahlining oliy maqsadidir. "Kitobxon hikoyani o'qigach, Prezidentimizning o'z asarlarida inson va jamiyat hayotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor berayotganining ma'no-mazmunini qalbdan his etadi, Kamoliddin Behzod kabi buyuk rassomlarga barcha sharoitlarni hozirlab bergan Navoiydek buyuk homiylarning ko'payishini istaydi".¹

Xurshid Do'stmuhammad o'zbek adabiyoti bilan bir qatorda jahon va qardosh xalqlar adabiyotini ham o'rganib, uning ijod ahli bilan yaqindan tanishib, bir so'z bilan aytganda, o'zaro aloqadorlikda va zamon bilan hamnafas holda ijod qilayotgan ijodkordir. Ayni vaqtda uning ijodini keng qirrali va ko'pjihatli ijod desak bo'ladi. Sababi, uning hikoyalarida teran fikrlar yetakchilik qilmoqda. Buni birgina o'zbek hikoyachiligida nazira sifatida bitilgan birinchi asar deya e'tirof

¹ Qozoqbo'y Yo'ldoshev. "Yoniq so'z". -T.; 2006, 137-138-bet.

etilayotgan **"Jimjitxonaga yo'l"** asari misolida ko'rishimiz mumkin.. Ushbu hikoya nazira bo'lishi bilan birgalikda, italiyalik adib Dino Butsatning "Yetti qavat" asari tarjimasiga qilingan badiiy ilova hamdir.

"Italiyalik mashhur adib Dino Butsatning "Yetti qavat" hikoyasini o'qidimu, ancha vaqtgacha uning ta'sirida yurdim. Nihoyat, ushbu favqulodda o'ziga xos hikoyani bir qadar erkin tarjima qilib, unga "nazira" o'laroq hikoya bitdim. Tajriba qanday samara berganini baholash o'quvchiga havola..."¹

X.Do'stmuhammad tomonidan keltirilib o'tilgan fikrda "nazira" so'zi qo'shtirnoq ichiga olingan. "Shuning o'zi ham "Jimjitxonaga yo'l" asari tom ma'nodagi nazira emasligidan dalolat beradi. X.Do'stmuhammad ham "Yetti qavat" hikoyasiga nazira bag'ishlar ekan, undan ko'p tillar mutaassir bo'lib yurganini aytadi. "Yetti qavat" hikoyasining erkin tarjimasini bilan o'z hikoyasini ketma-ketlikda beradi. Bu esa nazirachilik an'analarida uchramaydigan holat."² Bizningcha, "nazira" so'zining qo'shtirnoqqa olinishiga sabab, balki birinchi nazira bo'lganligi bo'sdir. "Yetti qavat" hikoyasining qahramoni Dino Korte, "Jimjitxonaga yo'l" hikoyasining qahramoni Zohid Yaqin degan obrazlar talqinida namoyon bo'ladi. Ikkisi ham bemor, kasalxonada. Ular yotgan kasalxona esa yetti qavatli. Dino Korte kunlar o'tgan sayin yettinchi qavatdan birinchi qavatga, Zohid Yaqin esa birinchi qavatdan yettinchi qavatga ko'tariladi. Mana shu holatdan xulosa yasash mumkinki, bemorlarning palatalari o'zgargani sayin, ularning ruhiyati ham ochila boradi. Dino Korte oltinchi qavatga tushganidan xursand bo'lmay, norozilik bildiradi, Zohir Yaqin esa ikkinchi qavatga ko'tarilishini xushnudlik bilan qabul qiladi. Masalan, "Yetti qavat" hikoyasining qahramoni Kortening qishloqdan chiqqan kundan buyon xotinidan xat olmaganligi, uning boshqa hech kim haqida o'ylamaganligi singari nozik jihatlar qahramon tabiati va u yashagan muhit haqida o'z holicha xabar bera oladi.³ Shuning bilan birga Kortega

¹ X.Do'stmuhammad. "Beozr qushning qarg'ishi" Toshkent , 2006 223-bet.

² Yoshlik. 3-son/2002 (185)

³ Qozoqboy Yo'ldoshev. "Yoniq so'z". -T.; 2006, 136-bet.

kasalxonada uning uchun qavatdan-qavatga ko'chish kerakligini aytishganda rozilik bermay, qarshi bo'ladi. "Jimjitxonaga yo'l" asari bosh qahramoni Zohid Yaqin esa qavatdan-qavatga ko'chishni istab, tashabbuskorlik ko'rsatadi. Bu ikki asardan shunday xulosaga kelish mumkin, "Yetti qavat" asari qahramoni Dino Korte jamiyatdagi nohaqlik va zo'ravonliklarga qarshi kurashadigan vakili bo'lsa, "Jimjitxonaga yo'l" asari qahramoni Zohid Yaqin hammasini taqdirdan deb biladigan qahramon sifatida talqin qilish mumkin. X.Do'stmuhammad ham Dino Butsati kabi kasalxona va undagi har bir qavatga ramziy ma'no yuklaydi va mana shu ramziy ma'nolar ma'lum darajada qahramonlar ruhiyati va hikoya mazmunini ochib beradi. Masalan, "Jimjitxonaga yo'l" hikoyasining qahramoni Zohid Yaqin, shuningdek, Shavqiya, Mujohida, Mushohida, Joziba kabi hamshiralari kabi obrazlar talqini so'zimizga asos bo'la oladi. Ikki hikoyadan chiqaradigan xulosamiz ikki xil, ya'ni Dino Korte o'limni fojia deb hisoblasa, Zohid Yaqin o'lim sari borar ekan, ruhi yanada tetiklashadi. Zohid Yaqin ismini ham muallif asarga bekorga kiritmagan. Zohid so'ziga ta'rif berishda tasavvuf ilmiga murojaat qilamiz. Sababi, tasavvufda ilk so'fiylar zohidlar deb atalganlar. So'fiylar esa Ollohni sevuvchilar, uning oshiqlari. Demak, asardan Zohid Yaqin ham Ollohgga yaqin bo'lishni istayotgani oydinlashadi. U ikkinchi qavatga xursand va quvnoq holda ko'tariladi. U shunchalik zavq-shavqqa to'lganidan ikkinchi qavatda uni Shavqiya ismli hamshira kutib oladi. Keyingi qavatlardagi hamshiralari ham xuddi Shavqiya singari ramziy obrazlardir. Masalan, beshinchi qavatda uni kutib olgan hamshira Mujohida. Bu ism arabcha "jahd" so'zidan olingan bo'lib, hayot zavqidan yuz o'girishga jahd qilish ma'nosini beradi. Keyingi qavatda esa Mushohida uni kutib turardi. Mushohida - dunyo hayotiga ibrat ko'zi bilan boqishni bildiradi. Zohid Yaqin mushohidani ko'rishi bilan bor hayoli ham uchib unga va faqat unga muhtojlik sezdi. "Bir ko'ngli Shavqiya bilan suhbatlashgisi keldi, biroq shu tobda uning ko'ziga Qaqildoq emas, hatto, hozirgina bir qarashda ma'qul ko'rib qolgan Mujohida ham emas, Mushohida go'zalroq, ko'rkamroq ko'rinib ketdi..."¹

¹ X.Do'stmuhammad. "Beozor qushning qarg'ishi". Toshkent, 2006. 254-bet.

Navbatdagi va so'nggi yettinchi qavatda uni Joziba ismli hamshira kutib oladi. Bu bir bemor uchun halovat, sokinlik, huzur va sukunat. Zohid Yaqin "Joziba" deb yuborganini bexosdan eshitib qolgan qarindoshlari uning yashashidan umid qiladilar. Shu paytda professorning bo'g'iqlik, lekin salobatli tovushi jarangladi: "-shovqin ko'tarmang, birodar!.. Siz, biz uchun emas, bemor uchun joziba. Zohidboyga. Zohid Yaqindek insonlargagina nasib etadigan joziba bu..." Shu bilan asar deyarli o'z nihoyasini topadi. Asar so'nggida muallifning xotima so'zlari keltiriladi. Bu bir vaqtning o'zida ikki shaharda ikki bemorning bandalikni bajo keltirishi edi. X.Do'stmuhammad hikoyalarida turli toifa kishilari qahramon darajasiga ko'tarila olganini ko'rishimiz mumkin. "Har bir ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bosqichida o'z millati, vatani manfaatlarini yoqlagan va kurashgan shaxslarning fe'li-faoliyatiga ko'ra, ezgulik, adolat, go'zallik singari bashariy qadriyatlarga munosabati, nuqtayi nazarga ko'ra milliyligi namoyon bo'ladi"¹. Ayrim o'rinlarda har bir obraz o'z muhiti, o'z sohasi uchun va shuningdek, kitobxon uchun ham haqiqiy qahramonligicha qoladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridan kelib chiqqan holda Xurshid Do'stmuhammad o'zi yaratgan obrazlarning ruhiyatini o'zining ruhiyatidan olib yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, muallif obrazning fe'l-atvoriga xos asosiy xususiyatlarni o'zining xarakteristikasidan oladi. Xurshid Do'stmuhammad barcha asarlarini hayotiy voqealar asosida yaratadi va shuning uchun ham muallif xarakteristikasi zamiriga qurilgan obrazlarining badiiy psixologizmi o'quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Ijodkor ongida yetilgan asarning yaratilmasligi mumkin emas. Shunday ekan, Xurshid Do'stmuhammad yaratgan asarlarning barchasi uning ongida yetilgan ijod mahsuli va bu esa asarlardagi personajlarning o'quvchilarga yanada yaqinligini ta'minlaydi. Sababi inson ko'ngliga yo'l topishda ruhiyat birinchi vosita sanaladi. Xurshid Do'stmuhammad esa aynan ruhiyat masalasini asarlaridagi birinchi galdagi vazifa deb biladi. Va

¹ Raximjonov N, Kubayev Q-"Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi".-T.:Adolat, 2005yil, 79-bet.

bunda esa yozuvchining mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, yozuvchi ramzlardan qahramonlar psixologiyasini yoritib berishda unumli foydalangan. Yuqoridagilardan kelib chiqib ushbu bobni quyidagicha xulosalashni maqsad qildik: Yozuvchi sarlavha tanlashda ham ramzlarga murojaat qiladi; Adibning hikoyalarida ramz va qahramonlar ruhiyati bir-birini to'ldirib, o'zaro mutanosiblikda keladi; Yozuvchi hikoyanavislikda ramzli obrazlarning ruhiy holat talqinidagi o'rnini yoritishda badiiylik unsurlaridan unumli foydalangan; Yozuvchi har bir obrazni yaratishda badiiy to'qima va hayot haqiqatini mutanosibligini ta'minlagan; Qahramonlarning xatti-harakatlari va holatlari orqali ham ularning ruhiyati ochib berilgan. Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirgan holda yozuvchining yaratgan har bir qahramoni va undagi sifatlarni yuksak baholaymiz. Chunki, u zamonaviy hikoyanavislikda ramzli obrazlarning ruhiy holat talqinidagi o'rnini ochib bera oldi va shuningdek, o'zining yozuvchilik mahoratini namoyon etishda bir qator ahamiyatga molik tadqiqotlar ham olib bordi.

II BOB. NAZAR ESHONQUL HIKOYALARIDA BOSH QAHRAMON PSIXOLOGIYASI

2.1. Nazar Eshonqul asarlarida modernism milliy talqinda

Nazar Eshonqul 1962-yil 15-iyunda Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Tersota kishlog'ida tug'ilgan. ToshDUning jurnalistika fakultetini tamomlagan (1986). Dastlabki asari — «Urush odamlari» (1988). SHundan so'ng yozuvchining «Momo ko'shiq» bo'lmaydi» (2004), «Momo qo'shiq» (2006) kabi asarlari nashr etilgan. F. K. Anittining «Hikoyalar va qissalar»ini, A. Kamyuning «Esselar»ini, CHexovning «Boloxonali uy» hikoyasini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Adib dastlab ijodini bosik-vazmin, keng qamrovli uslubda boshlagan bo'lsa, ko'p o'tmay yozuvchilarimizdan hech qolishmaydigan, hech kimninkiga o'xshamaydigan yangicha bir yo'nalish, yangicha bir yo'lga o'tdi.

Bizga ma'lumki, xarakterlar badiiy asarda o'ta muhim ma'no kasb etadi. «Xarakter (yun. charakter – belgi, xususiyat) ma'lum ijtimoiy faoliyat tipi. Xarakter L.Ch.Timofeev aytganidek, obrazning yadrosi. Xarakter birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o'z individual xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo'ladigan insonning aniq tasviri»¹. Boshqacharoq aytganda, qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmui xarakter deb yuritiladi. Nazar Eshonqul hikoyalarida ham xarakterning o'ziga xos turlarini ko'rish mumkin. Nazar Eshonqul hikoyalarida inson qadr qimmatini ulug'lash, insonparvarlik va adolatparvarlik va xalqlar do'stligi, insonlarning jamiyatda tutgan o'rni kabi g'oyalar olg'a surilgan. Nazar Eshonqul ijodida xarakterlar o'rtasidagi munosabatlar hikoyadagi asosiy muammoning yechilishida yoki bosh qahramon xarakter-xususiyati shakllanishida muhim o'rin tutadi.

"Bo'lmaganni xuddi bo'lgandek tasvirlash, fikrni uqtirmagan, ta'kidlamagan holda o'quvchining o'zida uyg'otish, bilganini bilmaganlikka olish orqali o'quvchini

¹ T.Boboyev.Adabiyotshunoslik asoslari.-T.,O'zbekiston. 2002 y. 52-bet.

bilishga undash, ifoda etilayotgan ma'noga muvoziq boshqa ma'no ko'chimlarini yuklash, taassurotga o'zi uyg'onadigan fikrlarni singdirishga asoslangan tamsil yo'nalishi Nazarning "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tobut", "Xaroba shahar surati" kabi hikoyalari, "Yalpiz hidi" turkumida oydinlashadi".¹

Ma'kumki, Hikoya – hozir javob janr. Unda birgina voqelik butun boshli voqelikni anglash uchun kalid vazifasini o'taydi. Yozuvchi ixcham voqelik bag'riga romaniy tafakkurni joylaydi. Romaniy tafakkur yozuvchi dunyoqarashi, iste'dodining yuksakligi bilan o'lchanadi. Hikoyada muallif barcha voqealarning FAOL kuzatuvchisi, tahlilchisi sifatida namoyon bo'ladi. Kuzatishning mohiyatida jamiyat hayotidagi, yoki tarixiy jarayondagi ichki ehtiyoj, zarurat yotadi. Bu – ma'naviyatdir. Yozuvchining badiiy asar orqali o'quvchini olib boradigan manzili – ruhiy olamdir. Bu inson tafakkuri, dunyoqarashi bilan bog'liq tarzda kechadi. Milliy urf-odatlar, misqollab yig'ilgan qadriyatlar, shaxslik maqomi badiiy asarning yurak-tomiridir. Asarni o'qigan o'quvchi o'zi anglagan dunyodan quvvat oladi. Asarning taftish maydoni qanchalik mohirlik bilan chizib berilgan bo'lsa, oqibatda o'quvchining didi shakllanadi. Bu did – har bir fuqaroning qoniga singib ketgan qadriyatlarni tarannum qiladi. Did bor joyda, rivojlanish bor, madaniyat va ma'naviyat mavjud. Estetik did deymiz, lekin barcha asarda bu noyob tushuncha bor deb bo'lmaydi. SHu bois, yozuvchi yozganlarida nimaga urg'u bersa, kitobxonni qandaydir yashirin voqelik tomon boshlasa, uning falsafiy qarashlarini faqat qadrlash zarur. CHunki did va qarash, tafakkur va tasavvur uyg'unligidan, yuksalishidan shaxsning «men»i shakllanadi. Binobarin, hassos yozuvchi SHukur Xolmirzaev hikoya haqida shunday e'tirof etadi: «CHamasi «hikoya haqida yozishdan ko'ra, hikoyaning o'zini yozish qiyin emas ekan, sababi – hikoyadagi qahramonlar ham, ular xatti-harakati, ana shu harakatdan kelib chiqadigan ma'no ham o'zingniki bo'ladi, bularning hammasi Annenkov aytmish «qanoting ostida» turadi. YOzganda ham, yozayotganda ham o'zingni erkin his etasan, nafsilambiri,

¹ O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi.

ruslar «kitob o‘zi uchun o‘zi javob beradi» deganlaridek, hikoyaning o‘zi ham har bir asar kabi o‘ziga xos bir olam, sen – yozuvchi – shu olam ustidan turib, undagi o‘zing «bino etgan sarguzashtlarni, Flober aytmish «insonlar taqdirini xudo singari kuzatasan», lekin albatta, ular ishiga hadeb bosh suqavermaysan»¹. Darhaqiqat, buyuk adib komil iqrar bilan ta’riflayotgan hikoyaning o‘ziga xos qonuniyatlari, milliy tafakkurni yuksaltirishdagi qadru qiymatining nechog‘li ahamiyatli ekanligini anglatish zarurti ham qabarib ko‘rinadi. Bir umr adabiyotga sadoqat bilan xizmat qilgan adib klassik hikoyanavislardan to‘rttasini sanab beradi. Bular Anton CHexov, Jek London, Robindrat Tagor, Abdulla Qahhor. Adib aynan shu to‘rtta ulug‘ yozuvchini keltirib o‘tgan. Bu boshqa masala. Darvoqe, «muammoning – muammosi inson» ekan, zamonaviy o‘zbek hikoyachiligida o‘ziga xos uslubga ega iste’dodli yozuvchi Nazar Eshonqulning keyingi o‘n yillardagi samarali ijodiy faoliyatiga murojaat qilishni maqsad qildik. O‘tgan asrning 80-90 yillar avlodi boshida Nazar Eshonqul bir qator yozuvchilar singari adabiyotga umuminsoniy muammolarni tahlil qilish orqali kirib keldi. Albatta, bu izlanishlar, ya’ni ilk ijod namunalari ustoz munaqqidlar tomonidan tilga olinib yuksak baholandi.

Yozuvchining 2011 yilda «SHaftoli guli» deb nomlangan hikoyalar to‘plami nashr qilindi. Undagi rango-rang falsafiy-psixologik hikoyalar zimmida millat kishisining ruhoniyaatidagi ajib evrilishlar, milliy qadriyatlarining toptalishi, sobiq ittifoq davridagi haybarakallachilik, shon-shuhratga moyillik, ofarinbozlik kabi puch g‘oyalarga e’tiqod qo‘yib alaloqibatda falokatga yuz tutgan inson qismati rivoya qilinadi. Bir qarashda juda oddiydek tuyulgan voqelik manzarasida, falsafiy umumlashma qabarib ko‘rinadi. Adib hikoyasida bitta muhim jihatga alohida e’tibor qaratadi: falsafiy rakursda odamzod qalbini tahlil qiladi. Ezgulik va yovuzlikning jangohi hisoblangan – qalbni inkishof qiladi. Qalbning teran qatlamlariga kirib borgan sari mohiyat yuzaga chiqadi. Bu mohiyatni voqelik sifatida ko‘rsatish va kuzatish yozuvchidan bilim va tafakkur talab qiladi, albatta!

¹ Xolmirzaev SH. Hikoya haqida.// “SHarq yulduzi”. 1971 yil 1- son. 220- bet

Negaki, adib aynan shu tafakkur quroli orqali bashariyat muammolarini ilg'ay oladi. Insonning qalbi nima bilan og'rimoqda? Bir oila, kasbdoshlar, qishloqdoshlar misolida bu og'riqlarni tor doiradan – umumdoiraga olib chiqadi. Aynan to'plangan umummuammo – barchaga birdek manzur bo'ladi. Hayotning qorong'uliklarini «Bahouddinning iti» hikoyasida ham o'ziga xos tarzda voqealantirgan adib boshdan oyoq, tagma'noni o'quvchining o'zigagina anglab etishga qoldiradi.

Ma'lumki, it obrazi islomgacha bo'lgan turkiy adabiyotda keng qo'llanilib kelingan. Buning ikkita muhim jihati e'tiborni tortadi: birinchidan it – o'z ma'nosida, ya'ni jirkanch mahluq sifatida qo'llanilsa, ikkinchidan, ijobiy – vafo timsolida, yor, mehr-shafqat belgisi ma'nosini anglatadi. Masalan, Alisher Navoiy bu xusuda yuzlab baytlar bitgan. Har bir baytda umuminsoniy, insonni falokatga boshlovchi – nafsni engish, itni engish bilan barobar deyilsa, boshqa bir o'rinlarda – vafodorlik ramzi sifatida inkishof qilingan. Va, bu o'z navbatida Navoiyning tasavvufiy talqinlar zimnida jonlantirgani ayonlashadi. So'fiylik ta'limotlarida ham it borazi ijobiy ma'no tashuvchi. Ko'plab tasavvuf adabiyoti vakillari it obrazini ezgulik va xokisorlik ramzi deya talqin qilishgan. N.Eshonqulning «Bahovuddinning iti» hikoyasi sof modernistik hikoyalardan sanaladi. Bir qarashda F.Kafkaning «Evrilish» asarini yodimizga soladi. F.Kafkaning «Evrilish» hikoyasi fantastik unsurlar ko'zga tashlanib tursa-da, adibning muhim gapi – o'sha, jamiyatda aqalli bitta inson yo'q seni tushunguvchi, u inson bo'lib ko'rolmagan saodatni, qandaydir jirkanch mahluqqa aylanganida sezib qolyapti. U mahluq sifatida tashqaridan o'zini va uni o'rab turgan jamiyat hayotini kuzatadi. Lekin N.Eshonqul talqinlarida shakliy unsurlardan, mazmuniy tomonlarigacha boshqa-boshqa olam. Bular nimalarda ko'rinadi? Adibning hikoyasida ramziy talqin – ishora tirik hayvon sifatidagi it timsoli emas, aksincha e'tiqod va e'timodi butun, o'zini juda teran anglab etgan, nafsu kibrdan yiroq, muhabbatini yuragida ilohiy javhar sifatida saqlay olgan qahramon timsolida namoyon bo'ladi.

Hikoyaning syujeti rejissyorning kuzatuvchisiz, uning ishtirokisiz harakatlanmaydi. Yozuvchining hikoya mohiyatini yanada o'zida aks ettirgan epigrafni tahlil qilish zarur. «*SHayx u go'zlaning jamolini ko'rish umidida yor ko'chasidagi itlar orasiga qo'shildi*» deb nomlangan epigraf Fariduddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asaridan olingan. E'tibor beraylik, hikoyada gap nima haqda bormoqda? Bu azaliy va abadiy muhabbat haqida. Hikoya qahramoni muhabbatining diydorini, uning sadoqat va vafosini bilib-bilmay oddiy odamlar qatori yashayotgandi. Ne yoziqki, injiq muharrir sabab boshlangan taloto'p, uning osuda hayotini chilparchin qilib tashlaydi. Injiq muharrir radiopesa uchun bog'u rog'da chaq-chaq urib sayrayotgan xushovoz qushlar ovozi magnit tasmaga yozib kelishga rejissyor va uning yordamchisiga buyruq beradi. Jarayon o'shla ovoz yozishdan boshlanib ketadi. Bu jarayon tobora murakkablashib, radiostudiyadagi hamma ishchilarni, rahbaru xodimlarni uyg'otib yuboradi. Bu uyg'onish ularning bir-birlariga bo'lgan muomala, munosabatlarida oydinlasha boradi. Aslini anglay olmaydigan, asl mazmundan bexabar muharrir va yoshi bir joyga borgan keksa rejissyorlar hayotda ishongan e'tiqodlarining puch ekanligini ko'rsatishdan iborat.

Shuni alohida qayd etish joizki, Nazar Eshonqul har bir asarida – ruhiy tahlil orqali jamiyatda istiqomat qilayotgan inson obrazini individuallashtirishga erishadi. «Bahouddinning iti» nomli hikoyasining o'ziyoq bu fikrlarimizni to'laligicha tasdiqlaydi. Hikoyaning mohiyatida shaxsning maslak-intilishlari, o'z so'zini o'tkaza olmasligi, hayotda o'zligini qidirib topolmay, arosatda qolgan inson qiyofasini namoyon qiladi. U o'zi gap nima haqida? Nega shunday? dgan savollarning javobini juda yaxshi biladi. Bilsa-da, biroq u o'z so'zini – hamkasblariga o'tkaza olmaydi. U ishdan ketish haqida necha bor rahbarga ariza qoldiradi. Lekin uni ham ishdan ketishiga yo'l qo'ymaydi ham uning to'g'ri ishlashiga to'sqinlik qilishda davom etaveradi. Bir qarashda juda oddiydek tuyulgan – ovoz yozish yumushi – jamiyatning bo'y-bastini, ya'ni sobiq ittifoq

davrida odamlarning ruhan eizilib, qiynalib yurishlarini ko'rsata olganligini his qilish mumkin. Masalan quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

«Ertasiga bizni asarga bezak berishdan chetlatishdi. Itning uvillashini yozib kelganimiz uchun oshimizga it kunini solishmoqchi edi, ammo tanlov yaqin qolgani sababli istisno qilishdi: boshqa guruh pesaga shovqinlar ishlovini beradigan bo'ldi. Bizga ham aynan shu kerak edi. Endi g'irt bekorchi edim. YOrdamchim yozib bergan tasmadagi itning uvillashini yana bir necha kun eshitib yurdim. Eshitganim sayin bui t nega uvillayapti, u kimni chorlayapti, kimga nola qilyapti degan o'y butun fikru xayolimni egallab oldi. Endi faqat nola qilayotgan it haqida o'ylar va ertayu kech qulog'im tagida faqat o'sha itning fig'oni jaranglardi. U qanday it? Egasi bormikin? Nega u bunchalik nola chekayapti? Bir necha kunlik savollarimga xuddi tashlandiq bog' javob beradigandek, o'sha itga o'xshab hurpayib olgan shoxlar orasida meni kutib turgandek, xiyobonga yo'l oldim. Quyosh endi shaharning toqqa tutash qismidan bosh ko'tarib kelardi. Bog' qushlar va parrandalar, umuman, tiriklikning go'zal qo'shig'iga to'lgandi. Men yana o'sha ovoz yozgan joyga borib o'tirdim. Maysa hidi kelardi bog'dan. SHudiring hovurida dimoqqa urilib, keyin qushlar chug'uriga qo'shilib ketardi...»¹

Darhaqiqat, hikoyachi – qahramon ruhiyatidagi borliqni junbushga keltirgan ovoz, aslida, u vafo ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Muborak zotning ismiga qo'yilgan it obrazi aslida – iymon ramzidir. Iymoni butun, e'tiqodi pok odamning qo'shig'i yanglig' ko'zga tashlanadi. Ruhij jihatdan o'zligini anglagan radio rejissyor qismati, ya'ni hikoya qaxramoni – mangu jangoh hayot atalmish jumoqning inja sirlarini bilishga o'zida zarurat sezadi. Bog' timsolida, unda sho'xshodon chug'urlashib yashayotgan parradayu, darrandalar, nabobot olamining nafis go'zalligining barcha-barchasi o'zligining anglagan inson qismatiga esh harakat qiladi. It – bu o'rinda insonning qismatiga paralell ravishda qo'yilgan muborak oynakka o'xshaydi nazarimda. CHunki itning vafo timsoli ekanligini barchamiz yaxshi tushunamiz. Ayrim manbalarda yovuzlik timsoli sifatida qaralgan. Lekin

¹ Nazar Eshonqul. SHaftoli guli. –T.: «O'zbekiston», 2011. 29-bet.

ko‘plab adabiy manbalarda it vafo va sadoqat, egasiga do‘st tutingan timsol sifatida qadrlanadi. SHu bois biz uni hikoyadagi qo‘yilgan muammoni anglash yo‘lidagi bir ko‘pirik desak, haq gapni aytgan bo‘lamiz.

SHuni aytish joizki, hikoyaning keyingi qismida qahramonning o‘zi ekanligi, o‘ziligini mash‘um uvillash, ovoz bilan anglay boshlaganligini kuzatishimiz mumkin:

«Ertasiga ham, keyingi kunlar ham men bog‘ning bir chetida o‘tirib, ko‘zlarimni yumgancha kunimni shu holatda, musibat va anduhdan titrab o‘tkazdim. Men uvillayotgan itni ko‘rgim, uning g‘amiga sherik bo‘lgim, musibat ezgan boshini silagim kelardi. Endi bir umr bu noladan ham, itdan ham ayrilolmaydiganday edim. Ko‘zlarimni ochganimda uvillash yo‘qolar, yumib olishim bilan qulog‘im ostida yana paydo bo‘lar, meni o‘z ohangiga olib kirib ketardi. Uvillash xo‘rli va haqoratga to‘la edi. Mahkumlik va mutelik, ojizlik va zulm qorishiq edi. Bu xo‘rlik bilan odam yashashi mumkin emasdi, men ko‘zlarimni ochib, «Qaerdasan, nega meni bunchalik ezasan, kel, seni ko‘ray, maqsading nima?!» deb pichirlardim. Pichirlashim qulog‘im tagida xuddi hayqiriqday sado berardi. O‘shanday lahzalarda men bir narsani bilib qoldim: ko‘zimni yumishim bilan bilan mening vujudimdan nimadir tashqariga otilib chiqib ketar, menga o‘sha otilib chiqib ketgan narsa itday bo‘lib tuyular, ammo mening vujudimda it nima qiladi deb bu shubhani inkor qilardim. Asta-sekin boqqa kelishim bilan vujudimdan otilib chiqib ketgan sharpaning itga o‘xshashligiga ishona boshladim. Vujudimdan chiqib ketarkan, ko‘kragim it panjalari bilan tirnalgandek og‘riqni his qilardi. Bir kuni ko‘zimni yumgancha, itning nolasi boshlanishini kutib turarkanman, uvillash shunday yongiamdan kelayotganday tuyuldi. Beixtiyor, o‘zim kutmagan ishddat bilan ko‘zimni ochdim. Sezgilarim aldamagan edi»¹. Ko‘rinadiki, o‘zligini anglab ulgurgan qahramon ruhiyatida – yovuzlikning ustidan tantana qilgan ezgulik tuyg‘usi alaloqibatda g‘alaba

¹ Nazar Eshonqul. SHaftoli guli. –T.: «O‘zbekiston», 2011. 31-bet.

qozonyapti. Bu hol mavjudlik jumbog‘i – olam va odam munosabatlarini, jamiki tiriklik va yashashga mahkum ekanligini anglatmoqda. Itga evirilgan odam ruhiyati g‘oyat ishonarli tasvirlangan. Demak, it va qahramon ruhiyatidagi rahm-shafqat masalasi – boshqa odamlarning turmushidagi o‘zgarishlarni, ularning mohiyatdan bexabarligini, faqat tirikchilik tashvishlari bilan yonib-kuygan insonlar munosabatini aniqlashga kalit vazifasini o‘taydi.

Bir qarashda hikoyada bosqichma-bosqich sahna rolini ijro qilayotgan hikoyachi qahramon intilishlari aks ettirilayotgandek. Chunki hikoyachi har bir ta‘rifu tavsiflarida zinapoyaga ko‘tarilayotgandek, tubanlik va xo‘rlanganlar qismatini – ovoz bo‘lgandayam mungli ovoz bilan tushunib olmoqchidek taassurot qoldiradi zukko o‘qiguvchida.

Ayniqsa, «mutelik va qaramlik» birikmasida – sobiq ittifoq davridagi yakkahokimlik oqibatida shaxs ruhiyatini parchinlab tashlanishi, ya‘ni qaramlik bilan yashashga o‘rganib ketgan odamlar orzulari aslida puch ekanligini anglatishga muayyan asos bermoqda. Bular nimalarda ko‘rinadi? Birnichi navbatda, bular hikoyaning mohiyatiga singdilirlgan adib falsafiy-estetik qarashlarida deb aytish o‘rinli bo‘ladi. Negaki, ozodlikni ichi-ichidan istaydi adib qahramoni. U pesa deb butun borlig‘ini parokanda qilgan qaramlikning mohiyatiga etish uchun boqqa sayrga chiqmoqda. Bog‘da esa o‘sh ovoz – itning uvillashiga ro‘baro‘ keladi. Bunday ramziy talqin tashqaridan qaraganda juda oddiydek tuyuladi. Lekin masalaga zimdan yondoshgan odam buning inja asrorini to‘g‘ri va aniq fahmlab oladi.

SHuni alohida ta‘kidlash joizki, Nazar Eshonqul hikoyalarida g‘arbu sharq ifoda usullarining qorishiq sintezini kuzatamiz. Ifoda xususiyatiga ko‘ra g‘arbning ilg‘or uslubiy izlanishlar, mazmuniy xususiyatga ko‘ra o‘zbek adabiyotining hikoyachilik an‘anasiga uyg‘un ravishda jozibadorlikni namoyon qiladi.

Hikoya xotimasida qiziq holatga duch kelasiz. YA'ni bu «Bahouddinning iti» nomli radiopesa mukofot uchun taqdim qilingan ishlar orasida birinchi o'rinni egallaydi. Quyidagi jummalarga e'tibor qarataylik:

«E'lon qilingan tanlov bo'yicha bizning «Bahouddinning iti» radiopesamiz «Eng yaxshi adabiy rejissyor» mukofotiga sazovor bo'lgani sababli menga rejissyorni zudlik bilan topishini tayinlaganingiz uchun uni qaerdan bo'lsa ham izlab topishga qaror qildim. Dastlab uyiga bordim. Uyni xech kim ochmadi. Qo'shnilarning aytishicha, u bir necha haftadan beri uyga kelmayotgan ekan. SHuning uchun nima qilishni bilmay qoldim. SHunda yodimga uning ishdan haydalgach, kunini biz uch oy muqaddam ovoz yozgan ovloq boqqa borib o'tkazayotganini aytgani esimga tushdi. Zudlik bilan o'sha yoqqa yo'l oldim. Qayta ta'mirlash maqsadida anchadan beri bog' ishlamayotgan ekan. SHunday bo'lsada, sizning topshirig'ingizni bajarish uchun qarovsiz boqqa kirib, rejissyorni izlashga qoravuldan ruxsat oldim. Ammo bog'da hech kim yo'q edi. Men biron ovloqroq joyda o'tirgandir deb bog'ning xilvat joylaridan uni qidira boshladim. Bir soatlar chamasi izlasam ham odam zotiga duch kelmadim. Hafsalam pir bo'lib, endi qaytmoqchi bo'lganimda devor tuynugidan kirib kelgan, bir-birini quvlab yurgan ikkita itga ko'zim tushdi. Ular goh mendan uzoqlashib bog' bo'ylab yugurishar, goh bir-birini erkalab tishlagancha, yonimdan quvlab o'tishar, xuddi ikki oshiqqa o'xshab, bir-birlarining qo'tirlarini tillari bilan yalashar, bir-birlarining yaralariga ko'zlarini surtishar, shu darajada baxtiyor ediki, men yonlarida turganimda ham, izidan ancha ergacha ergashib borganimni ham sezishmasdi»¹.

Alohida ta'kidlash joiz, hikoyaning echimida shu hol ro'y berganini nima bilan izohlash mumkin? Bu holat shundayki, odamzotning yovuz fe'lidan jirkangan – aqlli zotlar mayda va tuban narsalardan baland ko'tarilganini, ruhiyatigaingan ezgulik bayrog'ini halol va pok tutganida qabarib ko'rinadi. YAna

¹ Nazar Eshonqul. SHaftoli guli. –T.: «O'zbekiston», 2011. 37-38-betlar.

shuni aytish lozim, hikoyaning syujet liniyalarida – yovuzlikning ezgulikka tobeligi, baribir mag‘lub bo‘lishini kuzatamiz. Demak, adib iymon va e‘tiqod masalasiga oydinlik kiritishni maqsad qilgan. Bitta tashkilotda ishlab, bir-birlarini tushunmaydigan insonlar xarakterini chizishga, it misolida aniqlashga harakat qilgan. Agar bu hikoyani jahon xikoyachiligi mezonlari bilan o‘lchaydigan bo‘lsak, Kafka, Joys, Kamyu kabi hikoyanavislarning asarlari qatroida turishini e‘tirof etish joiz. Chunki hikoyadagi olib chiqilgan va ko‘rsatilgan, tahlil qilingan eng ulkan muammo ham aslida – o‘zlik masalasi. O‘zligini topgan, o‘zligida yangi narsalarni anglagan insonki bor, u baxtli va omadlidir. Biroq boshqa odamlarga o‘xshab faqat shaklning izidan quvib, mazmuni bilmagan odamzod baxt nima ekanligini tuzukroq anglay olmaydilar. Adibning boshqa-da hikoyalarini tahlil qilishda shunday o‘rinlarga duch kelamiz.

Uning, ayniqsa, barchaning e‘tiborini tortgan hikoyalaridan "Shamolni tutib bo‘lmaydi" va "Maymun yetaklagan odam" hikoyalari barchaga manzurdir. Asarlarida qahramonlarning qalbi, ichki dunyosi, ruhiy olamini ramz va metafora orqali betakror chizgilarda aks ettiradi. Xuddi mana shu yo‘nalish bilan u adabiyotimizning sahnasida o‘z o‘rnini topdi. Hozir uning asarlari kitobxonlarning o‘qimishli kitoblaridir. Chunki, Nazar Eshonqulning hikoyalarida qahramonlar masalasi muallif uchun bosh muammo sanaladi. Asarni esa qahramonlarsiz va ularning ruhiy olamisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Aynan mana shu jihat bilan uning ijodi ahamiyatlidir.

Asarda personaj ruhiyatining uning xatti-harakatlari, gap-so‘zlari, yuz-ko‘z ifodalari, undagi fiziologik o‘zgarishlarni ko‘rsatish orqali ochib berilishi bilvosita psixologik tasvirdir. Qahramonlar ruhiy olamini har bir yozuvchi va ijodkor o‘z iqtidoridan kelib chiqib tasvirlaydi. *"Psixologizm - ijtimoiy munosabatlarni va strukturalarni psixologik ma'lumotlar, inson psixikasi xususiyatlari, odamlarning bevosita o'zaro harakatlarini tahlil qilish asosida tushuntiradi"*¹ Nazar Eshonqul

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 6-jild, T., 2004 y, 189-bet.

ham birgina qahramonlar ruhiyatini turlicha rang va ohanglarda tasvirlaydi va oldiga qo'ygan maqsadiga asar so'ngida, albatta, erishadi.

"Ramz voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli, badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'pma'noliligi bilan ajralib turadi." Xuddi shunday ko'pma'nolilikni Nazar Eshonqul hikoyalari ham ko'rish mumkin.

Nazar Eshonqul deyarli shakllanib ulgurgan modernistik yo'nalishdagi ijod namunalari bilan zamonaviy kitobxonga manzur bo'lmoqda. U o'z nigohlarini inson botiniga qaratib, go'zallik, ezgulik va haqiqatga xizmat qiluvchi sodda, teran, ravon, xalqchil mazmuni e'tiborga molik mavzular bilan hisoblashadigan yozuvchi, ijodkordir. Yozuvchining mahorati hikoyalarning sarlavhasidayoq ko'zga tashlanadi. Chunonchi, uning "Maymun yetaklagan odam", "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Bevaqt chalingan bong" hikoyalari bunga yaqqol misoldir. Bu sarlavhalar ko'pmanoliligi bilan ham ahamiyatlidir.

1989-yil 6-yanvar kuni "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida Nazar Eshonqulning yangi hikoyasi bosildi, ya'ni uning ijodi yana bir yangi va mazmunli asar bilan boyidi. Hikoya qahramonlarining ruhiy olami ham o'zgachadir. "Hikoyada ruhiy holatni kuchaytiruvchi timsollar ko'p, ularning hech biri bevaj ishlatilmaydi, balki muallif ko'zda tutgan bosh maqsad - rassom chol fojeasini chuqurroq va bo'rttiribroq ifoda etishga xizmat qiladi."¹ Yozuvchilar bir asari bilan, xoh u kichik hajmli she'r bo'lsin, xoh trilogiya bo'lsin bundan qat'iy nazar o'z maqsadiga erishish, ya'ni aytmoqchi bo'lgan fikrini yetkazib berish uchun harakat qiladi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, muallif Nazar Eshonqul ham o'z maqsadiga erishish uchun har xil timsollardan, ishoralardan foydalanib ijod qilayotgan yozuvchilardan. Yozuvchining ko'pchilik asarlari qatori hikoyalari ham uning bolaligi o'tgan muhitga borib ham bog'lanadi, yoki umumiy holatda o'zbek millatining bosib o'tgan hayot yo'lining yaqqol dalili sifatida ham tasavvur qilish mumkin. "Nazar ana shu birgina hikoyasi bilan umr shomini boshidan

¹ Xurshid Do'stmuhammad. Ijod- ko'ngil munavvarligi. Toshkent "Mumtoz so'z" 2011-y, 109-bet

kechirayotgan katta bir tuzum ustidan o'zining badiiy hukmini o'qigan edi. Uning tili-tasviri beshafqat, ba'zan me'daga tegadigan darajada qora bo'yoqlarga boy, lekin ifodalar beshafqatligi, qora rangning quyuqligi zamirida bedod tuzum tufayli barbod bo'lgan umrga, umrlarga nisbatan rahm-shafqat to'la edi."¹ Bir qarashda hikoya bir xil ohangda yozilganligi uchun ham zerikarli tuyuladi. Biroq uni tahlil qilish jarayoni bundan mustasno. Nazar Eshonqul hikoyalarining mazmun va mohiyatiga e'tibor bersak, ularda ko'proq tundlik, zulmat, qorong'ulik kabi holat tasvirlari juda ko'p uchraydi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasi sarlavhasini ikki xil izohlash mumkin. Maymunni yetaklayotgan inson yoki insonni yetaklayotgan maymun. Shuningdek, yozuvchi bu hikoyaning nafaqat sarlavhasini, balki syujetida ham ramzga murajaat qilganligi yorqin ifodasini topgan. Hikoyada asosiy detal hisoblangan chol chizgan suratlardagi quyuq o'rmon, ko'zlaridan o't chaqnab turgan yigitning bo'yniga tarang qilib kishan tortilgan maymunni yetaklab chiqishi tasviri va hikoyaning so'nggida, aksincha, maymun quyuq o'rmonga munkaygan bir cholni yetaklab kirishi tasviri butun asarning mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu tasvirlar mohiyatan bir qancha ramzlarni qamrab oladi.

Yigit bu yerda o'zi yashayotgan jamiyat a'zolarini yetaklab ketayotganga o'xshaydi. Uning ko'zidagi olov, yuzidagi ishonch va unga berilgan qizg'ish bo'yoq yigitning bunga qodir ekanliganing ramzidir. Aynan shu jihatlar bilan hayotni, insonlarni boshqarish mumkin. Zamonaviy hikoyanavislikda inson va jamiyat munosabatlari oddiy tushunilmaydi. Unda odam ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatidagina emas, balki shaxsiyatidagi murakkabliklar va o'ziga xosliklar bilan uyg'un tasvirlanadi. Bu hol, birinchidan, ijtimoiy hayotda individual xususiyat kuchayganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, o'zbek hikoyanavislarining tasvir mahorati oshganligidan dalolat bermoqda.

¹ Xurshid Do'stmuhammad. Ijod- ko'ngil munavvarligi. Toshkent "Mumtoz so'z" 2011-y, 109-bet

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, quyuq o'rmon sari maymunni yetaklab ketayotgan yigit bu yerda jamiyatni g'uborlardan poklovchi, insonni ma'nan barkamollikka undovchi kuchdir. Uning ko'zida hayotiylik ufurib turishi bilan birga borliqdagi ezgu niyatlar ham jilvalanadi. Aynan bu holatdagi tasvir yigitning jamiyatni oldinga yetaklay olishiga bo'lgan ishonchidan dalolat beradi.

Cholning ko'zida esa umidsizlik, befarqlilik kabi ma'no aks ettirilgan. Yigitda bor xususiyatlar cholda bir paytlari mavjud bo'lgan bo'lsa, lekin hozir ularda zarracha ham o'xshashlik yo'q. Chol ojiz, ilojsiz, mavjud muhit va jamiyatga taslim bo'lgan, loqayd jamiyat vakili ramzi.

Biz guvohi bo'lgan tasvirning har ikkalasida yigit va chol obrazi ikki xil tasvirlangan. Ana shu ikki xillik bir-birini inkor etmaydi. Sababi, ularda tasvirlangan ikki xillik mutanosiblikda ifodalangan. Ular bir-birini to'ldirib keladi. Birinchi tasvirda yigit jamiyatni boshqarishni istagan bo'lsa, ikkinchi tasvirda jamiyat o'z a'zosini boshqaryapti.

Maymunning cholni o'rmonga yetaklab ketishi kitobxonni biroz mulohazaga tortadi. Xo'sh, cholning umri tugab boryaptimi yoki u vaqtga taslim bo'lganmi? E'tibor bersak, cholning bo'ynida kishan yo'q. Bu uning vaqti-soati oxirlaganidan dalolat. Biz aynan manashunday damlardagina xohlaymizmi, yo'qmi, jamiyatga yoki mavjud hayot tarziga tobe bo'lishimiz mumkin. Yigitning maymunni yetaklab o'rmondan chiqishi jamiyatni ham maymun kabi yetaklay olishini, cholning maymunning ortidan ko'zlariga g'am cho'kkan, hayotga bo'lgan intilishidan nishona qolmagan holda ergashishi esa jamiyatga, mavjud haqiqatga tobe ekanligining ramzidir. Ya'nikim, maymun bu yerda insoniyat, u yashayotgan jamiyat ramzi.

Maymun tasvirida ta'sirchan va fikr-mulohaza talab etuvchi ramz, har ikkala tasvirda ham o'rmondan chiqib kelayotgan maymun yoki kirib ketayotgan maymun ham bir xil ko'rinishda. O'rmon va chol zamon, jamiyat va muhit ramzi hamdir. Har ikkala tasvirda ham ular o'zgarimchi. Maymun birinchi tasvirda bo'yniga tarang qilib tortilgan kishan bilan tasvirlanadi. Bunda yosh va beg'ubor

qalbli insonning jamiyatni boshqarish orzusi deya izohlansa, ikkinchi tasvirda jamiyatning murakkab talotumlari va bo'xronlari yigit kabilarni o'z domiga tortib, ezgu niyatlarini "yutib" yuborganligi bilan izohlanadi.

Aslini olganda hikoyada kishan alohida ramz sanaladi. Sababi, u ikki xillikni ajratib turibdi. Birinchi tasvirda maymunni yetaklab chiqib kelayotgan yigitning qo'lida bo'lsa, ikkinchi tasvirda cholni yetaklab kirib ketayotgan yigitning qo'lida o'sha kishanning yo'q ekanligi. Agar maymun ning qo'lida kishan bo'lganida edi, unda cholning umri tugayotgan emas, balki cholni jamiyat boshqarayotgan bo'lardi. Kishan tarang qilib tortilgan birinchi tasvirda yigit jamiyat va hayot uchun kurashda har qanday to'siqni yengib o'tishi mumkinligi tasvirlangan. Ikkinchi tasvirda esa kishan yo'q bo'lsa-da, chol maymun ortidan o'rmonga kirib ketishi tasvirlangan. Cholning avvalo yashashi uchun hech qanday kuchi va imkoniyatining yo'qligini bildiradi.

Demak, yozuvchi kichik bir detal orqali ikki holatni bevosita bog'lab, hikoya obrazlarini ramzlar orqali tasvirlaydi. Aynan shuning uchun yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalarida ramzli obraz yetakchi sanaladi va deyarli hikoyalar mazmunini aynan ramzlar tashkil etadi.

Shuning bilan birgalikda muallif cholning o'g'li obrazini ham asarga bejiz kiritgan emas. U qimor o'ynaydi, otasidan pul so'raydi, uni uradi. Mana shu axloqsizligi bilan u bugungi kun yoshlari orasida uchrab turadigan o'z ota-onasinida unutajak beboshlarning vakili sanaladi. Bugungi kun yoshlari orasida o'zini har qanday buzg'unchi g'oyalardan himoya qila oladigan va kerak bo'lsa qarshi kurashadiganlari ham bor. Ana shunday yoshlarning vakili sifatida esa talaba obrazi kiritilgan. Nazar Eshonqul hikoyalarining biri boshqasiga o'xshamasa-da, lekin mantiqan davomi deb o'ylashimiz mumkin. Masalan, "Maymun yetaklagan odam" hikoyasining bosh qahramoni rassom obrazi, "Tobut" hikoyasining bosh qahramoni me'mor obrazining mantiqiy davomi deb ham

o'ylashimiz mumkin. Nazarning deyarli barcha asarlarida "qo'lansa is" qahramonning ruhiy holatini bo'rttirib tasvirlashda o'ziga xos vositaga aylanadi.¹ Haqiqatdan ham, Nazar Eshonqulning ushbu ikki asarida ham "qo'lansa hid" tasvirining o'rni va ahamiyati o'zgachadir. Kichik bir izoh, yoki bo'lmasa kichik bir detal ham qahramonlarning ruhiy holatini butkul ochib berishi bizga ma'lum. Xuddi mana shu holat N.Eshonqulning hikoyalarida o'z tasdig'ini topganligini ko'rish mumkin. Muallif chirkin hid tasviridan "Maymun yetaklagan odam" hikoyasida chol ruhiyati tasvirini ochib berishda mohirona foydalanganligini guvohi bo'lamiz: "Ustun va romlari chirigan, umuman hovlidan chirkin va badbo'y hid kelardi. Chirkin hid daraxtlardan, qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan, uyning yog'ochlaridan va ayvonda qalashib yotgan har xil rasmlar uyumidan kelayotgan edi: shaltoq hid esa axlat solinadigan unduqadan kelardi"² Aynan mana shunday tasvir keltirilgan manzarada chol har kuni rasm chizadi. Demak, cholning har kuni o'tayotgan bu manzara uning xarakterini ochib berishga xizmat qiladi. Ko'rishimiz mumkinki, kishi ruhiyatini ochib berish uchun uning nafaqat o'zi, balki, tashqi olami, u bilan bog'liq bo'lgan manzaralar ham muhim o'rin tutadi. "Maymun yetaklagan odam" hikoyasidan keltirilgan bu holat rassomning xonasi tasviri bo'lsa, "Tobut" hikoyasidan keltirilgan lavhada me'morning qurgan shaharida ham xuddi shu hidga ishora qilinadi: "Hammasidan ham shaharga kirishimiz bilan dimog'imizga xuddi boshliqning nafasidan anqigan hidga o'xshash ufunat urilgani bizni biroz shoshirib qo'ydi: «chirkinlik, xazonrezgilik va badan hidi qorishib ketgan shaharda ufunat xuddi bu manzilga tashrif buyurganlarning burnini kuydirib tashlash uchun ataylab tarqatilayotganday edi: faqat lahaddagina shunday hid anqishi mumkin deb o'yladim men."³ Yangi qurilgan shaharga noma'lum kasallik tarqaladi. Kundan kunga o'liklar soni ortib

¹ Xurshid Do'stmuhammad. "Ijod-ko'ngil munavvarligi"-Toshkent,-"Mumtoz soz".2011y.109-bet

² Nazar Eshonqul. "Yalpiz hidi".

³Nazar Eshonqul. "Yalpiz hidi".

boradi. Hikoyaning yechimini qachonki, hikoya xotimasini o'qigandagina topish mumkin. Chunki yangi qurilgan shahar tobut shaklida qurilgan bo'ladi.

Shuningdek, Nazar Eshonqulning "Xaroba shahar surati" nomli hikoyasida ham yuqoridagi hikoyalardan keltirilgan lavhalar kabi badbo'y hidni ko'rish mumkin: "Suratga qarab turib doimo dud hidini tuyardim: balkim menga shunday tuyulgandir, ammo bu oddiy tutunning hidi emsdi, men bunday achimsiq hidni ko'p yillar avval qishlog'imizga yovvoyi ayiq quvlab yurib kelib qolgan bir guruh ovchilarning qurum bosgan miltig'ida his etgan edim va suratdagi hid haqiqatan ham hozirgina ortlagan uyqum hidiga o'xshardi: ehtimol bu hid mening dimog'imda shahar aql bovar qilmas xiyonat va sotqinlikdan so'ng vayron etilgan, deb o'ylay boshlagach paydo bo'lgandir?"¹

"Maymun yetaklagan odam" hikoyasining ramziy ma'nodagi davomi sifatida "Tobut" hikoyasini keltirib o'tdik. Xuddi shunday "Xaroba shahar surati" nomli hikoya esa "Tobut" hikoyasining mantiqiy davomidir.

Ushbu davomiylikdan kelib chiqib aytish mumkinki, Nazar Eshonqul hikoyalarida va umuman ijodiyotida bir asarda boshlangan faryod ikkinchi bir asarda alanga olgan cho'g' kabi isyon ko'taradi. "Nazarning barcha asarlarida qadimiy vazmin va ma'yus musiqa yanglig' saqlanib kelayotgan birdek tanish ohang kitobxonlarimizni ham ta'sirchan, sirli va mushohadakor o'ylarga toldiradi".² "Xaroba shahar surati" hikoyasini o'qish davomida dastlab nima uchun faqat birgina surat haqida shuncha gap borayotganiga hayron bo'lasan, kishi. Hikoya shunday boshlanadi: "Bu surat xonamda qachon paydo bo'ldi, qanday kelib qoldi, to'g'risi, hozir aniq eslayolmayman, lekin men bu suratni ko'chadan, xiyobon burchagiga o'tirib olib, o'tgan-ketgandan sadaqa so'rayotgan o'zining chizganlarini arzon garovga sotib o'tiradigan, arvohdoy ozg'in va sersoqol qandaydir qashshoq rassomdan sotib olgan bo'lsam kerak deb o'zimni ovuntiraman".³ Voqealar muallif

¹ O'sha asar.

² Xurshid Do'stmuhammad. "Ijod - ko'ngil munavvarligi" Toshkent "Mumtoz so'z" 110-bet

³ w.w.w.ziyouz.com

tilidan bayon qilinadi. U suratdagi shaharni Tursoriya deb ataydi. Hikoyani o'qish davomida muallif suratni nimaning ramzi qilib olgani haqida juda ko'p fikrga ham borishimiz mumkin. Masalan, hikoyada keltirilgan suratdagi shaharni ramziy ma'noda yurak yoki bo'lmasa yor vasli deb ham tushunish mumkin: "Nima bo'lganda ham Tursoriya bir qarashda ko'ngilga g'ulu solib qo'yardi, biroq bo'yoqlar oqimiga tikilib qarasangiz, shaharning tosh devorlari borib tutashgan tepalik uzra qorachiqday qizg'ish shu'lani ko'rishingiz mumkin edi."¹

Shuningdek, Nazar Eshonqul qalamiga mansub barcha asarlarda qahramonlar ruhiyati kitobxonlarni befarq qoldirmaydi. Chunki, ijodkor shunchaki yozishni chetlab o'tadi, u timsollar, ramzlar, ishoralar, qaratiqlar, o'xshatishlar, misollardan unumli foydalanadi. Shu sababli bo'lsa kerak, bu ijodkorni bilgan, kitoblarini muntazam o'qib kelgan kitobxonlar ham uning kelgusi asarlarini o'qiganlarida yana bir yangilik kashf qiladilar. Sababi, muallif o'zini o'zi yangilaydi, eskilikdan ortga chekinadi, ya'ni qahramonlar ruhiyati va kechinmalarini takrorliligidan qochadi. Bu esa unga va uning ijodiga bo'lgan xurmat va ishonchni orttiradi.

Mustaqillik har bir ijodkor ahliga o'zgacha bir ilhom hamda keng imkoniyatlar yaratayotgani oyday ravshan. Har bir badiiy asar, har bir she'r, yaratilayotgan har bir qahramondan badiiy kashfiyot talab qilayotgan bir davrda Nazar Eshonqul ijodidagi o'zgarishlar ham badiiy kashfiyot darajasiga ko'tarilda. Uning asarlaridagi obrazlarning xilma-xilligi va ruhiyat tasvirining tabiiyligi uning ijodidagi ko'tarinkilikning sababidir. Nazar Eshonqul ijodini o'rganar ekanmiz, u xuddi rassom kabi kishi ruhiyatini ranglar orqali emas, balki ramzlar orqali tasvirlayotganini guvohi bo'lamiz. Nazarimizda, Xurshid Do'stmuhammad kabi Nazar Eshonqul ijodida ham yaratilgan bu jihatni badiiy kashfiyot desak xato bo'lmaydi. Sababi bunda ham takrorlanmas personajlar, shuningdek, kishi ruhiyatini ochishda va xarakter yaratishda ramzlarning imkoniyatlari nechog'li ko'p ekanligini isbotlab berdi.

¹ O'sha internet sayti.

2.2. Xarakter yaratishda yozuvchi mahoratining o'ziga xosligi

Istiqlol davri hikoyanavisligi o'zanini izlayotgan irmoqlardek ijod namunalari bilan kitobxonga tanish, notanish tasavvurlar bermoqda. O'z o'zanini hikoyanavislikdan topgan, ijodkor, yozuvchi Nazar Eshonqul hikoyalari kechinma tavsifining ustunligi bilan ajralib turadi.

Nazar Eshonqul asarlarida insonning qalbi, ichki dunyosi, ruhiy olami ramz va metaforalar orqali betakror chizgilarda aks ettiriladi. Bunday ijod namunalari adabiyotimizning o'ziga xos yangi yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda. Yozuvchining dastlab yaratgan va e'lon qilgan hikoyalardan shu davrga qadar yaratilgan asarlari ijodi shakllanishi uchun yetarli, asos bo'ladigan darajada mazmunlidir. Bugungi kunda Nazar Eshonqul ijodini o'rganilishiga asos bo'ladigan ayrim asarlarni ko'rsatib o'taylik:

Birinchidan, yozuvchi har bir hikoyani ramzli va ma'lum bir belgi kashf etuvchi sarlavha ostida boshlaydi. Chunonchi, uning "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Bevaqt chalingan bong", "Maymun yetaklaga odam" singari hikoyalari ramzlar orqali shakllantirilgan.

Ikkinchidan, yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan holatlarni shakllantirilishiga hikoyanavislikda guvoh bo'ldik. Nazar Eshonqul milliy istiqlol davri o'zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan va yangiligidan tashqari ohangning o'zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. "Nazar nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o'zbek millatiga xos bo'lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir".¹

Uchinchidan, N.Eshonqul ijodini F.Kafka ijodiga qiyoslash mumkin. Ma'lumki, F.Kafka ijod namunalari jahon adabiyoti durdonalaridan o'rin olgan. Aytishimiz mumkinki, N.Eshonqul jahon durdonalari darajasidagi hikoyalarni yaratishga intilmoqda. Fikrimizni asoslashga harakat qilsak, Qozoqboy

¹ Qozoqboy Yo'ldoshev. "Yoniq so'z" t. 2006 yil.

Yo'ldoshevning "Yoniq so'z" kitobida F.Kafka hikoyalari kishida qo'rquv, hatto ayrim o'rinlarda jirkanish tuyg'ularini uyg'otishi mumkinligini keltirib o'tadi. N.Eshonqulga esa quyidagicha ta'rif beradi: **"Ayrim o'rinlarda o'xshatishlarning sun'iyli, hayratlarning qahramon tabiati va ruhiyatidan yiroqligi kishining g'ashiga tegadi"**. Lekin bu holat faqat ayrim hikoyalardagi ayrim o'rinlarda kuzatilsa-da, N.Eshonqul hikoyalarining mavzulari rang-barang. "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasining sarlavhasi-da, insonni o'ylashga majbur qiladi. Xo'sh, shamol bu o'rinda qanday ramz, nimaning belgisi, qayerga ishora degan savollar tug'ilishi tabiiy. Hikoyada ko'zda tutilgan shamol – "vaqt" ramzi. Shamolni tutib, to'xtatib bo'maganidek vaqtning hisobini ham ortga qaytarib yoki o'zgartirib bo'lmaydi. Bu o'z o'rnida nimaning belgisi ekanligi. Vaqt-bu umr. Vaqt-soati yetganda inson umri tugaydi. Bu esa shamolning o'rni ma'nosiga ishora qilishi. Hikoya so'ngida shunday holatga duch kelamiz: "ko'p turganidan bo'g'in-bo'g'in bo'lib, faqat suyakning o'zi qolgan, u ham qoramtir tus olib, naq kukunga aylanish arafasiga kelgan, chorsining yirtig'iga pala-partish o'rab tashlangan o'nta odam barmog'i ham topildi".¹

Bu yerda barmoqlar, aynan, odam barmoqlari haqida so'z ketar ekan, ular so'zsiz – qasos, o'ch ramzidir. Barmoqlar miltiqdan o'q uzgan, insonni qiynagan, o'ldirgan va azob bergan inson Zamon Otboqarning barmoqlaridir. Bayna momo esa qasos oldi. Erining o'g'lining, shuningdek, butun tersotaliklarning qasosini oldi. Shamol – miltiqdan otilgan o'qning ramzi hamdir. Nazar Eshonqulning ham tug'ilgan, unib-o'sgan joylari uning ruhiyati, fikrlashi, fe'l-atvoriga bir umrlik ta'sir o'tkazgan va muallif nazarda tutayotgan Tersota uning tug'ilgan vatnining nomidir. Hikoyadan xulosa sifatida shunday deyish mumkin: otilgan o'qni ham, shamolni ham to'xtatib bo'lmaydi.

Bayna momoning eri, o'g'li, Zamon otboqar kabi epizodlar ham shamol misoli juda kam hayot ko'rdilar. Bayna momo esa qasos, o'ch, qasd olami bilan yashadi. Bu qahramon tabiatan beg'ubor emas. U umri davomida bor sitamlarini, qahr-

¹ Nazar Eshonqul. "Yalpiz hidi".

g'azablarini bor alamlari va ichki kechinmalarini ichiga yutib kelgan qahramon timsolida gavdalanadi.

Bayna momoni yaxshi xotiralar bilan eslashardi. U jiddiylikni o'ziga o'rtoq qilib olgan edi. O'g'li va erining murdasi tepasida turgan Bayna momo madad izlab, uylarining tuynuklarini yopib turgan qora pardalarga bir-bir ko'z tikdi, biroq u yerda sovuq sukutdan boshqa hech narsa ko'rinmas, zulmatga cho'kkan tuynuklar bu misli ko'rilmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi.

Bayna momo o'zining qanchalar bardoshli ekanligini zamonning va Zamon otboqarning kaltaklariga baholi qudrat chidaganligi bilan namoyon qildi. O'z-o'zidan o'zini, or-nomusini, diyonatini saqlab qola oldi. Og'ir kunda qolganda ham dushmani oyog'iga bosh urmadi.

Bayna momo shu darajada zardali ayolki, hattoki bu zardaning ta'sirida yelkasiga bug'doyni ortib o'zi tegirmonga boradi. Uning bug'doy ko'tarib yurishidan ori kelgan Ollomurod tegirmonchi Bayna momoni insofga chaqiradi.

–Siz bunday ovora bo'lib yurmang,- dedi u.- Biron erkakdan berib yuborsangiz, tortib, o'zim uyingizga olib borib tashlayman.¹

Bayna momoning g'ashini keltigan bu gaplar jahlini ham chiqardi.

U ba'zida qishloqdoshlarni ochiq masxara qilardi: «E, senmisan, salom chavandoz, xotiningning ishtonini kiyib yuribsanmi deyman»...² Bayna momoning bunday o'zini tutishi bora-bora uni butunkay yakkalanib qolishiga sabab bo'ldi. Qish paytlari uchun g'amlab qo'yilgan o'tini yetmagan kunlari ham bo'lardi. Shunda u ko'rpaga oyog'ini tiqib, xotirasiga isinib jon saqlardi. Bayna momoni hayot kaltaklari hayron qolarli darajada murakkab tabiatdli ayolga aylantirib qo'ygan edi. Eri va o'g'lining o'limi unga yigirma uch yil tinchlik bermadi. Bayna momo baribir oriyatinnig, erining, o'g'lining, Tersotaliklarning qasosini olishni ko'ngliga tugib yashardi. Shunday bo'lsa-da, Zamon otboqarning o'limi ham Bayna momoning qalbini yumshata olmadi: uning o'limi to'g'risidagi xabarni

¹ Yalpiz hidi.Qissalar va hikoyalar. N.Eshonqul. T., "Sharq", 2008. 254-bet.

² Yalpiz hidi.Qissalar va hikoyalar. N.Eshonqul. T., "Sharq", 2008. 254-bet.

keltirishganda Bayna momo o'z hujrasida kelinlik sandig'i yonida cho'kka tushgancha musibatu g'amga ko'milib o'tirardi. Uning shu turishi azob-uqubatning bir to'plam uyumiga o'xshardi. Xujraga bosh suqqan Roziya momo unga Zamon otboqarning o'limi haqidagi xabarni yetkazdi.¹

Ushbu suhbatdan keyin Bayna momo o'zini xalqi bilan o'rnatilajak barcha muloqot eshiklarini taqataq yopdi. Qaysi ma'nodaki, Bayna momo fikricha uni hech kim tushunmas edi. U ana shu holatni o'zi ustidan bo'layotgan kulgu deb tushunadi. Boshqa hechkim anglashga qodir bo'lmagan o'z dunyosiga kirib ketishni afzal bilardi va shunday qildi ham. Bayna momo so'nggi nafasigacha o'z nafratiga sodiq qoldi. Bayna momo qasos olgan o'sha kun uning uchun qanday kechganini hech kim tasavvur qila olmaydi. Endi esa oradan yana yigirma yetti yil o'tdi. Jami ellik yil bo'ldi hamki, Bayna momo yolg'iz qolgandi. Umrining oxirida bu o'jar kampir baribir o'zlarinikiga ko'chib bormasligini sezgach, singlisi bilan kuyovining o'zlari ko'chib kelishdi, ammo bu paytda Bayna momo butunlay oyoqdan qolgan, faqat kun uzog'i ko'zini shiftga cho'zilib yotishga yarardi.

Qishloqqa laparlar yig'ish uchun kelgan qizlar Zamon otboqarnikidagi to'yga qo'shilib ketgan bazmga emas Bayna momonikiga kela solib, kir yuvishga tushadilar – Bayna momo yoqtirmagan ichko'ylak, ro'mol, shimlarini shundoq hammaga ko'rinadigan joyga ilib qo'yishgan edi.

Mirshablar Zamon otboqardan ayrilib qolgan xalq dardini yengillashtirish maqsadida har bir erkak bilan birma-bir suhbatlashib kelishdi va navbat yigirma uch yil ilgari Zamon otboqar tomonidan eri va o'g'li o'ldirilgan Bayna momoga keldi. Uning bu ishni qilishga jur'ati qay darajadaliq mirshablarning hayoliga ham keltirmay faqatgina Bayna momoni ko'rishgandagina bunga ishonch hosil qildilar. Ya'ni uloqlar ichida uloqdan ham kichik jussali, yuziga yillarning beshavqat muhri bosilgan hamda yolg'izlikka mahkum etilgan.

¹ O'sha kitob, 256-bet.

Har bir soniyaning musibatu anduhi asorati porlab turgan kichkina, jimjitday, sochlari oppoq bo'lib qolgan kampirni ko'rishgach, negadir botinisholmadi. Ular qarshilaridagi ramaqijon kampir bilan devday Zamon otboqarni qiyoslashib, o'z shubhalaridan uyalib ketishadi., chog'i indamay iziga qaytadilar. Ular, garchi, Bayna momoni so'roq qilganlarida ham hech narsaga erisha olmasdilar – u keyingi yillarda bir og'iz ham gapirmagan, so'zlar va ularning ma'nosi uning xotirasidan chiqib ketganday yoki o'z mohiyatini yo'qotganday, o'z qayg'u va azobi bilan kunlarni zo'rg'a yengib yashayotgan edi. Bayna momo to'y bo'lmish xonadonga bugun aza bo'layotganini zavq bilan, qutlug' bir vazifani bajarayotgan ma'suldek, hamda armoni qolmagandek, 23 yil ham oilasiga ham tersotaliklarga soya solgan tosh haykal kabi qilt etmasdan tamoshabinlik qilardi, kuzatardi.

Nihoyat bu kampirning ham sitamgar kitobi o'qib bo'lindi – u laylatulqadr kutilayotgan oqshom yog'och va ko'p yillik anduhlar hidi o'tirib qolgan, sodiq qo'shunday ellik yilning biron kuni ham tark etilmagan g'amnok va alamli saltanati – kelinlik to'shagida jimgina joni uzuldi – faqat o'lishi oldidan singlisini chaqirib yigirma yildan buyon ochilmagan, oltmish yetti yil oldin teraklilik Ko'r Safar usta yasagan, yarim vayrona sandiqqa imo qildi va bir so'z ertasiga tushga yaqin chiqarishdi.¹

Hikoya so'ngida Bayna momo chin ma'nodagi jasur ayol, o'zbek ayoli ekanligiga ishonch hosil qilamiz. U vafodor ayol. Eri va o'g'liga bo'lgan mehri, vafosini asray bildi. Hikoyaning yakunida Zamon otboqar barmoqlarining sandiqdan chiqqani esa u chin ma'nodagi qahramon ayol darajasiga ko'tarildi. Bayna momoning aynan laylatulqadr kechasi vafot etishi qaysidir ma'noda xosiyatli hamdir. Chunki, ushbu ulug' kunda hamma Ollohga sig'inib, joynomozga bosh qo'yib, faqat shirin so'zlarni, niyatlarni bildirayotgan tilayotgan muborak kunda bayna momo shiftga qarab o'z umrini tugashini, shamolning esishini kutib turardi. Bu kun uning umriga nuqta qo'ydi.

¹ Yalpiz hidi. Qissalar va hikoyalar. N.Eshonqul. T., "Sharq", 2008. 260 bet

“Shamolni tutib bo’lmaydi” hikoyasining bosh qahramoni Bayna momo “Bevaqt chalingan bong” nomli hikoyaning bosh qahramoni qorovulga tabiatan o’xshaydi. Bayna momo ham qorovul ham hayotdan charchagan, qo’lini yuvib qo’ltig’iga artgan, parvoyi falakka o’xshasa-da qalbida qasos yashirin obrazlardir. Bayna momo eri va o’g’lini, qishloqdoshlarining qasosini olgan bo’lsa, qorovul ham onasining qiynalganini o’ylab, bir umr qiynalib kelgan vijdonining o’chini oldi. Bu qahramonlar xatolikka yo’l qo’yganlar deya olmaymiz. Sababi, ular ilojisiz qolganlar. Qasos esa qiyomatga qolmasligi kerak. N.Eshonqul bu hikoyaning bog’liqlik jihatini shunday yashiradiki, hikoyalarni bir o’qigan odam buni anglashi qiyin. Bu asos yozuvchining ulkan mahoratidan darak beradi.

“Bevaqt chalingan bong” hikoyasining ham sarlavhasi e’tiborni tortadi. Savol tug’iladiki, bong nimaning ramzi. Birinchidan, bong qo’ng’iroq ma’nosida ishlatilsa, ikkinchidan, hayqiriq ma’nosida keladi. Qaysi biri hikoya sarlavhasini ifodalayapti? Albatta, bu bong kotibning yuragidan emas, og’zidan otilib chiqqan qo’ng’iroqdek jarangdor, yoqimsiz hayqiriq edi. Kotib xohlamagan holda aytadimi yoki vaziyatni yaxshi tomonga burish uchunmi, nima bo’lganda ham bu hayqiriq o’zining umriga chek qo’ydi. Balki kotibning so’zlari haqiqat bo’lganda hikoya fojeali tugamas edi.

Albatta, N.Eshonqul hikoyalarini kamchiliklardan holi deb bo’lmaydi. Ko’p o’rinlarda tushunarsiz va kalavaning uchi yo’qolar darajadagi tafsilotlar ham uchraydi. Shuning uchun ham hikoyaning asli ma’nosini ilg’ash qiyin bo’lib ketadi. Shunday bo’lishiga qaramay, N.Eshonqul hozirgi davr hikoyanavisligining peshqadamlaridan biri bo’lib qolmoqda. To’g’ri, ba’zida N.Eshonqul ijodida qahramonlarni tasvirlashda, aynan ularning ruhiy holatini yoritib berishda qora bo’yoqni haddan tashqari quyuqlashtirib yuborishi mumkindir, lekin bunga ham unda asos bor. Bir so’z bilan aytganda, Nazar Eshonqul hech bir detalni, hech bir unurni o’z-o’zidan ishlatmaydi.

Nazar Eshonqul hikolarining deyarli barchasida obrazlar shunday tasvirlanadiki, ularning hayotiy ekanligiga ishonadi kishi. Yuqorida ko’rib

chiqayotgan hikoyalardan hech biri qiziqishsiz qolgani yo'q. Sababi, bu hikoyalar kichik hajmli bo'lishiga qaramay, keng qamrovli qahramonlar ruhiy olamini singdira olgan. Mana shu ruhiy olam ta'sirini his qilib o'qigan kitobxonning fikri ham faollashadi, taassurotida o'zgacha bir yangilanish holati yuz beradi. Bu esa yangi bir kitobxon qatlamini vujudga kelishiga turtki bo'ladi. Nazar Eshonqul yaratgan qahramonlarning deyarli barchasi real voqelikda harakatlanadigan hamda kundalik turmush tashvishlari bilan hamnafas insonlardir.

Nazar Eshonqul qalamiga mansub bir necha hikoyalarni bilamiz, lekin ular ichida bir hikoya borki, uni boshqalariga qiyoslab bo'lmaydi. Bu Nazar Eshonqulning "Og'riq lazzati" nomli hikoyasi. *"Og'riq san'ati ham san'atga xos barcha sifatlarga ega, hatto ulardan mukammalroq ham edi"* kabi jumllarini ko'rib turib bu hikoyaga bo'lgan qiziqish va yondashuv kitobxonda butkul o'zgaradi. *"Ushbu jumla bilan muallif o'z ijodiy konsepsiyasiga bir qadar izoh bergandek tuyuladi."*¹ Haqiqatdan ham ijodkorning har bir hatti harakati uning uslubini, yo'nalishini belgilaydi. Ushbu hikoya orqali yozuvchi berahmlik, shafqatsizlik, zo'ravonlik kabi salbiy odatlar va ularga qarama-qarshi holda bardoshli bo'lish, chidamlilik, ko'nikish kabi xususiyatlarni qo'yib, jamiyat a'zolarini shunday tasvirlaydiki, bu hikoyani o'qib o'z-o'zidan kitobxon qaysi tarafga o'tishini bilmay qoladi. Bular: azobga mahkumlar, nazoratchilar, tomoshabinlar va ularga baho beruvchi muhbirlar. Eng muhimi yozuvchi bu hikoya orqali jamiyat a'zolarini umumiy holda talqin qildi. Agar mahkumlar tomonida bo'lishni istasangiz, azoblar qanchalik og'ir bo'lmasin, ularning o'zi shuni istashayotganini ko'rib, ularga nisbatan sizdagi rahm o'z-o'zidan o'ladi. "Mabodo birontasi fig'on qilishdan to'xtab qolsa, xuddi aybdordek, yaralar behad azob berayotgan sheriklariga hasad aralash ko'z tashlar va nazoratchilarni imlardi".²

Nazoratchilarni ham haq deb bo'lmaydi. Chunki ular ham o'z ishlarini astoydil bajarganlaridan ulardagi insoniy xislatlar yo'qolib ketgan edi. "Boshliqdan tanbeh

¹ Xurshid Do'stmuhammad. "Ijod-ko'ngil munavvarligi"-T.; "Mumtoz so'z", 2011 yil.

² w.w.w.ziyouz.com

eshitgan nazoratchilar biroz kengashib olgach, vajoatli qiyofada yana mahkumlar oldida paydo bo'lishar va avval oyoqlarining, so'ng qo'llarining barmoqlarini birma-bir, bo'g'inma-bo'g'in sindira boshlashardi: og'riq qo'zg'atish mumkin bo'lgan barcha usullarni qo'llashga ruxsat berilgandi; nazoratchilar avval mahkumlarni etlari shilinguncha savalab chiqishar, keyin yaralar ustiga tuz sepishardi."¹

Tomoshabinlar har doimgidek, o'zicha haq. Ular jabrlovchi ham, jabrlanuvchi ham emas. Nazarlarida faqat oddiygina, beozor tomoshabinlar, xolos. O'quvchi ko'zi bilan qaraganda mutlaqo unday emas. "Tekin tomosha ko'rishni istovchi ertayu kech maydondan ketmay ularning faryod va fig'onga to'la holatini zerikkuncha tamosha qilishar, hatto tunlari ham bu yerda xohlagancha tomoshabin topilar edi."

Bu haqida gazetachilar ham juda sermulohaza fikrlashar edilar. Og'riqni lazzat deb uqtirishardi. Buni faqat unga mahkum bo'lganlarga tushunishadi deb yozishardi. Muhibrlarku mayli, lekin bu haqda shug'ullanuvchi tadqiqotchilar ham paydo bo'lgan edi.

Yozuvchi hikoyani shunday tasvirlaganki, unga qanday baho berishga qiynalasan, kishi. Og'riq lazzat deyiladi hikoyada. Savol tug'iladiki, og'riqdan qanday qilib lazzatlanish mumkin. Xo'p, qiynalgan qalbni yana qiynab unga azob berish o'rniga lazzat berish mumkinmi? Sovuqni sovuq kesadi, degan naql bor xalqimizda. Darhaqiqat, mana shu holatga shu naql mos tushmoqda. Ammo, qanday qilib og'riq san'at darajasiga ko'tarilishi mumkin. "Suyak qarsillab ketardi; mahkum esa saodatnavish jilmayar, yorilib ketgan lab va burundan oqayotgan qon uning tabassumiga zarracha bo'lsin gard yuqtira olmas, aksincha, mahkum azobu og'riqdan farog'atlanib turgan shu soniyada yana ham salobatli va ilohiy tuyulardi.

- San'at, bu san'at, - deb baqirishardi olomon mahkumning yuzini ko'rsatib.

- Qoyil qilishayapti, - chiyillardi orqadagilar ham. - Bunaqasi kamdan--kam uchraydi.

¹ w.w.w.ziyouz.com

Og'riq san'ati ham san'atga xos barcha sifatlarga ega edi, hatto ulardan mukammalroq ham edi; uning har bir harakati, holati, ovozi, ijrosi, manzarasi shunday izchil tartibga ega ediki, biri ikkinchisiz sodir bo'lmasdi va eng ulkan rassomlar ham eng ulug' asari ustida mahkumlar kabi zavqlangan, lazzatlangan emas va ular ham bu manzarani chizishga ojiz qolardilar. Og'riq va og'riq paydo qilishning turi, usullari shunchalik xilma-xil ediki, bu sohada har qanday san'at turi bilan bahs boylasha olardi, binobarin, bu san'atdan ham boshqa san'at turlari kabi mahkumlik mavjud va buning ham o'z tomoshabinlari bor edi."

Yozuvchi bu hikoya orqali insonni haqiqiy san'at asari ekani, u har qanday azobga ham, qiyinchilikka ham o'rgana olishi mumkinligini e'tirof etmoqda. Mahkumlar qancha azob chekishsa ham kulib turishardi. Mahkumlarning labidagi tabassumni ham yozuvchi o'z-o'zidan kiritgan emas. Ular kim yoki nima ustidan kulishmoqda? "yuzida haqorat va xo'rlikdan, musibat va alamdanda asar ham yo'q, labining chetidagi tabassum esa, hayotining qorong'u ko'chalarida qolib ketgan, o'sha olis dorilamon kunlarning bir siniq parchasi, o'zini tomosha qilayotgan, olqishlayotgan olamon oldiga kiyib chiqqan niqobi edi, ana shu tabassumgina uni maydondagilar ichida ulug'vor va mag'rur ko'rsatib turardi." Bu bilan yozuvchi hayot yo'lidagi har qanday qiyinchilik va muammolarga ham faqat kulib qarash kerak demoqchi. Hikoyaning so'nggida shunday voqea beriladiki, buni o'qigan kitobxon inson naqadar yaxshiy va qanchalik jasorat egasi ekanligiga hayron qoladi. Oxir-oqibat To'rtinchi mahkumni yuragini sug'urib oladigan kun ham kelgan edi. Shunday bo'lsa ham u mag'rur o'tirar edi. Uning uchun atalgan yozuvlar, bir qancha gullar va eng asosiysi, ajoyib olqishlar faqat uning uchun edi. Hayqiriqlar esa tomoshabinlar nazarida unga yanada kuch bag'ishlar edi. Inson naqadar oliy ruhiyat egasi ekanligini o'sha tasvirda To'rtinchining yuzidagi alfozdan bilish mumkin edi. Unurtqa suyagini arralay boshlashganda ham o'zini g'oz tutishi uning yanada ruhiyatini ochib bergan. Hattoki yuragini sug'irib olishganda ham u tomoshabinlarga bepisandlik bilan boqar edi. Yuraksiz, ya'ni jonsiz tana bilan ham hammani kuzatishda davom etardi. Nihoyat uning yuzidagi

tabassum so'na boshladi. Tabassum so'nishi bilan uning jonsiz tanasi ham quladi. "Tana gullar ichida ko'rinmay qoldi. Qo'lida yurak bulkillayotgan nazoratchi bu ulug' san'atkor oldida avval tiz cho'kdi, so'ng yurakni ohista uning ko'kragi ustiga qo'ydi. Shundagina biz og'riq-farog'atidan so'ng ham, o'zimiz turgan zaminga tushmaganini angladik - u narigi yoqda, lazzat yurtida qolgan edi - uning jonsiz tanasi ham san'at asariga aylangan va yashnoq gullarga ko'milib yotardi."

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Nazar Eshonqul qora bo'yoqlarni ko'p ishlatadi va ba'zida keragidan ortiq darajada. Lekin, kitobxon qalbiga aynan o'zining maqsadini yetkazib berish uchun ham mana shunday bo'rttirishlar kerak bo'ladi. Balki shuning uchundir Nazar Eshonqul yaratgan qahramonlar individualligi bilan farq qiladi. Uning yaratgan qahramonlari qanchalik nafratlanadigan darajada yomon bo'lmasin, lekin uning qaysidir jihati bilan sizni o'ziga maftun etadi.

Xullas, Nazar Eshonqul dastlabki hikoyalari bilan adabiyotga havaskorboshlovchi qalamkash emas, professional malakadagi adib sifatida kirib keldi.¹ Ijodi sermahsul va ayni damda sermazmun ijodkorlarni kitobxonlar ham sog'inadi, ijodini to'ztovsiz kuzatadi. Ana shunday ijodkorlar qatoridan joy olgan N.Eshonqul o'quvchilar diqqatiga bir necha hikoyalar havola etdi. Yaxshi she'rni gapirib berib bo'lmaydi. Uni faqat chuqur his qilish mumkin va ruhshunos kabi tushunish, tahlil qilish mumkin. Xuddi shunday asar yaratishda ham voqealarni shundayligicha kitobxonga bayon qilib bo'lmaydi. Nazar Eshonqul hikoyalarini kuzatib turib bunga yanada ishonch hosil qilasiz. Uning ijodini deyarli har bir tafsiloti ramz va timsollar bilan boyitilgan. Bu bilan u yaratgan personajlarni tushunish va ularni his qilish yanada osonlashadi.

UMUMIY XULOSALAR

Hozirgi kunda majoziy obrazlar lirik hikoyanavislikda o'z o'rniga ega. Ana shunday hikoyalarni X.Do'stmuhammad va N.Eshonqul ijodida kuzatish mumkin. Har qanday yozuvchining ham iste'dodi uning qancha asar yozgani-yu, qancha ijod qilgani bilan emas, balki, badiiy tafakkurga qanday o'zgarishlar olib kirib, adabiy

¹ X.Do'stmuhammad. Ijod-ko'ngil munavarligi. T.: "Mumtoz so'z", 2011 y. 109-bet.

jarayonga qanday ta'sir o'tkazgani bilan belgilanadi. X.Do'stmuhammad va N.Eshonqul ham hech shubhasiz shunday yangi jarayonning faollari, adabiyotimizning keyingi avlodlari orasida jadal o'sib kelayotgan ijodkorlardan sanaladi. Har ikkisinin ijodi ham yangilikka o'ch va takrorlanmas jihatlari bilan ahamiyatlidir. Bu adiblar misolida adabiyotimizning bir joyda turg'un emasligi, o'z qonuniyati bo'yicha o'sib, taraqqiy topib borishiga ishonish mumkin. Shunga ko'ra ham yozuvchilarning yaratgan har bir qahramonidan insonlar o'zi uchun nimadir yoki qaysidir ma'noni olishga intiladi. Chunki yozuvchilar badiiy asoslashni va bu boradagi badiiy detallarini juda o'rinli qo'llaydilar. Bu esa kitobxonlarda real hayotdagi kimsalarni ko'rib turgandek tasavvur qoldiradi. Yozuvchilar hayotning turli jabhalari haqida va turli toifa kishilarini qahramon qilib hikoyalar yaratganlar. Har bir qahramon o'z muhiti uchun, o'z sohasi va o'z yaqinlari va kitobxon uchun haqiqiy qahramonligicha qoladi. Bu yozuvchilarning ko'pchilik asarlari qatori hikoyalari ham uning bolaligi o'tgan muhitga borib ham bog'lanadi, yoki umumiy holatda o'zbek millatining bosib o'tgan hayot yo'lining yaqqol dalili sifatida ham tasavvur qilish mumkin. Shunga ko'ra yozuvchilarning hikoyalarida yaratilgan o'zbekona xarakter, ularning o'zbek hikoyachiligidagi o'rni va o'zlariga yuklatilgan vazifaning qay darajada bajarishiga qarab ham o'z muxlislarini topa oladi, shu bilan birga, shubhasiz, juda katta estetik-ma'naviy ozuqa oladilar. O'zlik sari eltuvchi uzun yo'lni bosib o'tish hech mahal oson bo'lmagan. Jamiyat a'zolarining ichki olami chuqurlashgan, kishilarning intellektual – ruhiy saviyalari ko'tarilgani sari ulardan individual jihatlari yaqqolroq namoyon bo'laveradi. Teran o'ylaydigan shaxs tanholikka intiladi. Chunki uning o'zi va ko'ngli bilan qiladigan ishi bor. O'ysiz individ uchun esa, yolg'izlikdan katta fojia yo'q. Bunday odam o'zi bilan yakkama – yakka qololmaydi. Zamonadoshimiz bo'lmagan odam teranlashib, o'ziga ko'proq e'tibor qaratib o'tir. Shu bois bugungi adabiyotdan ommaviylik kutish o'rinsiz. Hozirgi adabiyot individual adabiyot bo'lishga mahkum. Chunki bugungi odamning o'zi – alohida shaxs. Kechagina u biror ijtimoiy tabaqaning vakili sanalardi. Bugun u – o'z shaxsiyatning elchisi, o'z “men” ining ifodachasi,

xolos. Shaxsligi teranlashmagan kishilardan iborat millat ahlining qiziqishlari bir xil yoxud bir – biriga yaqin bo'ladi. Shaxsiyati chuqurlashgan odamlardan tashkil topgan millatning har bir a'zosi o'z olami bilan yashaydi.

Bunday kishilar to'dalasha olmaydi, olomon bo'lolmaydi. Bu holat odam uchun, ehtimol, saodat, balki fojiaadir. Lekin shunday jarayon kuzatilayotgan ayondir. Bugungi adabiyotning tasvir qamrovi, ta'sir ko'lami haqida fikr yuritganida shu jihatga e'tibor berish zarur.

Adabiyotning ommaviylikdan tobora yiroqlashuvining asosiy sabablaridan yana biri uning to'lig'icha ko'ngil ishiga aylanib borayotganidir. Adabiyot asli yaralishidan ko'ngil rozi edi. Nisbatan yaqin davrlardan e'tiboran, u ijtimoiy turmush muammolariga aralashadigan bo'ldi. Badiiy adabiyot vaqtida o'z zimmasiga jamiyatni o'zgartirishday og'ir yumushni ham oldi. Chunki insoniyat taraqqiyotining u bosqichlarida kollektiv ruhiyat, kollektiv did, kollektiv qarashlar hukmron edi. Ammo endi ijodkor hadeb atrofga alanglayverishdan, o'zgalarni tekshirishdan tiyilib, o'ziga, o'z ichki olamiga nazar tashlab, o'z ruhiyatini taftish qila boshladi. Qiziqki, o'zgalarga daxldor bir dunyo jihatlar borligini ko'rdi. Bu holni hisobga olmay, uning sababini o'rganmay turib, bugungi adabiyot to'g'risida to'g'ri fikr yuritib bo'lmaydi.

X.Do'stmuhammad va N.Eshonqulning yuqorida ko'rib chiqilgan hikoyalarining barchasi ham ibrat bo'larli hayot voqealari tanlanganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ularni tahlil va tavsiflash jarayoni yozuvchilarning qahramonlar ruhiyatini yaratish mahorati xususida quyidagi xulosalarga kelindi.

Nazar Eshonqulning deyarli barcha hikoyalarida "qo'lansa is" qahramonning ruhiy holatini bo'rttirib tasvirlashda o'ziga xos vositaga aylanadi. Ayniqsa, "Maymun yetaklagan odam" va "Tobut" «Bahouddinning iti» hikoyalari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Birinchiidan, adib xos talqin orqali mohiyatga zimdan nazar tashlaydi, uning ruhiyatida kechayotgan uzil-kesil o'zgarishlarni asosli va mantiqiy tahlil qiladi. Xulosani esa zukko kitobxon zimmasiga yuklaydi.

Ikkinchidan, Nazar Eshonqul o'z yuragidan o'tkazgan voqelikni tabiat bilan uyg'un ravishda tasvirlaydi. Hikoyalarida daraxt yoki biron jonzot obraz darajasiga ko'tarildimi, demak shu asosda asarni boshdan-oyoq ramzlarga burkaydi. Ramziy talqin ruhiy olamni aniqlashga kalit vazifasini o'taydi.

Uchinchidan, jamiyatning ichdan emirilgan, ya'ni sobiq ittifoq davrida odamlarni qo'rquv va mutelik egallangan qalbini yangi bir mazmun bilan to'ldirgan qahramon timsolida holat va ishoralar negizida tahlillashga erishadi.

To'rtinchidan, inson ruhiyatini sinchkovlik bilan kuzatadi, olam va odamzodning tiynati, undagi xos muammo nimada ekanligini anglashga harakat qiladi. Eng asosiysi, Nazar Eshonqul talqinlarida – inson xotiga chuqur hrumat va e'tibor bilan qaraydi. To'g'ri ayrim lavhalarda jirkanch va alamzadalik ko'zga tashlanadi. Bular hikoyaning mohiyatiga, yovuzlikning turlanib-tuslanib turishiga urg'u beradi. Bu mantiqiy bog'lam adib hikoyalarida – odamzod oruzsi millat orzusi ekanligini ko'rsatadi. Barcha asarlarida sobiq ittifoq davridagi qiyinchiliklar bilan yashagan odamlar qiyofasini tahlil qilishga o'zini burchli sanaydi.

Nazar Eshonqul hikoyalarida qahramonlar ruhiyatini yaratishda o'ziga xos yo'nalish seziladi. Ya'ni, har bir qahramonning ruhiy olami o'z hayotiy asosiga ega va real tasviriy ma'no bilan yo'g'rilgan. Ruhiyat tasviriga mos baddiy detallar ko'plab keltirilgan va bular ham hikoyalardagi qahramonlarning ishonarli tavsiflanishida ko'mak vazifasini o'tagan. Nazar Eshonqul hikoyalarida qahramonlarining ruhiy holati tasviri mahzun berilishiga qaramay, qiziqarli va o'ziga xos. Sababi, muallif "hayotiylik"dan chetlanmagan holda ramziylikka murojaat qiladi.

Xurshid Do'stmuhammad kishilardagi salbiy va xunuk illatlarni teranroq ochib berish uchun ham "Jajman" hikoyasiga "inson" emas, balki hayvon misoliga murojaat qildi.

Xurshid Do'stmuhammadning "Jajman" hikoyasi so'nggida bir qarich Jajman o'rniga ikki qarich Jajmanning tushishi va hikoyaning shu yerda tugatilishi orqali yechim ochiq holda qoldirilib, kitobxon hukmiga havola etiladi va bu hikoyaning

muvaffaqiyati, muallifning yutug'i hisoblanadi. Chunki aynan muammoli vaziyatlar va ularning o'ziga xos yechimlari kitobxon ruhiyatiga o'ziga xos ta'sir ko'rsata biladi.

Xurshid Do'stmuhammad ijodida o'zbek hikoyachiligida nazira sifatida bitilgan birinchi asar deya e'tirof etilayotgan "**Jimjitxonaga yo'l**" asari birinchi nazira bo'lishi bilan birgalikda, italiyalik adib Dino Butsattinning "Yetti qavat" asari tarjimasiga qilingan badiiy ilova hamdir. Bu hikoya ham g'amgin ohangda yozilsa-da, lekin qahramon ruhiyati tasviri mohirona tasvirlangan. Bunday tasvir ko'zga tashlangan ijod namunalari o'z-o'zidan kitobxonlarga manzur bo'lishi tabiiy. Umuman, har ikki ijodkor asarlari ham kelajak avlod uchun ham ma'naviy ozuqa berish quvvatiga egaligiga ishonch bildiramiz. Keltirib o'tgan xulosalarimizni yuqorida ko'rib o'tgan asarlarimizning tugallangan yoki so'nggi xulosasi deya olmaymiz. Zotan davr, muhit o'zgarmoqda. Shu boisdan har qanday badiiy asarga bo'lgan qarash, munosabat har bir davrda o'ziga xos bo'lishini tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Xurshid Do'stmuhammad hikochilikni yangi bir pog'onaga olib chiqqan adiblardan biri sanaladi. Unda voqelikni ko'p tarmoqli syujet yaratish bilan tahlillaydi. Ayniqsa mohiyat-e'tibori bilan Nazar Eshonqul talqinlarida keskin farq qiladi. Adib hikoyalarida mavzu – jamiyatda istiqomat qilayotgan odamlar hayoti, ularning yashash tarzi, orzu intilishlari kabi masalalar qalamga olinadi. Shuni alohida aytish joiz, istiqolol davrida ikkita adib izlanishlari bilan yangi bir hikoyachilik sahifasini ochib berganligini ko'rishimiz mumki. Bular nimalarda ko'rinadi. Avvalo, qahramon ruhiyatini ishonarli va har tomonlama puxta tahlil qilganligida deb aytish o'rinli. Chunki X.Do'stmuhammadning o'zi hikoya janri qonun-qoidalari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Unda hikoyachilikning 80 yillardagi ahvoliga nazar tashlanadi. Masalan, o'zining keyingi yillarda yaratayotgan hikoyalarida – undagi mavzular rang-barangligi o'sha yuqorida alohad ta'kidlaganimizdek. Inson ruhiyatini tahlil qilishda ekanligi yorqin namoyon bo'ladi.

Biz har bir hikoyasini sinchiklab o'rganib chiqishni maqsad qilishimiz kerak. Bu ishlarni keyingi tadqiqotlarimizda bajarishga harakat qilamiz. Chunki har ikkala adib talqinlari milliy mustaqillikni avaylab-asrash, unda yashovchi odamlarning orzularini tahlil qilish, keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarini bajaradigan saxovatpesha xalqimiz hayotini yoritgan asarlar yaratayotgani e'tirof etishimiz darkor. Negaki, adiblarimiz o'zlarining orzulari – mustaqillikka erishganda o'tmish davri voqeligini yoritish baxtiga muyassar bo'ldilar. Nazar Eshonqul hikoyalarini xorijiy tillarga tarjima qilish, o'rganish kerak. Chunki unda siz va biz haqimizdagi voqelik aks ettirilgan. Xurshid Do'stmuhammad talqinlarida ham bu kabi holatni kuzatish mumkin. Har qachongidan yangilanib, rivojlanib borayotgan o'zbek hikoyachiligida ramziy talqin, ruhiy tahlil ifoda usullari yangi ufqlarni namoyon qilmoqda.

Rasmiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.,“O'zbekiston”. 2009-yil.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.-T., “O'zbekiston” nashriyoti, 1997-yil.
3. I.A.Karimov. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay.-T.:“O'zbekiston”, 1993-yil.
4. I.A.Karimov. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi.-T.:“O'zbekiston”, 1995-yil.
5. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch .-T.:“O'zbekiston”, 2008-yil.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar

1. Qozoqboy Yo'ldoshev. Yoniq so'z, -T.; 2006, 137-138-betlar.
2. T.Boboyev.Adabiyotshunoslik asoslari.-T.,O'zbekiston. 2002-yil, 52-bet.
3. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. T., 2004-yil, 64-bet

4. G.Sattorova. "90-yillar o'zbek hikoyachiligi milliy xarakter muommosi".T., 2002-yil, 3-bet.
5. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. B.Nazarov, A.Rasulov, Sh.Ahmedova, Q.Qahramonov. T., "Tafakkur qanoti", 2012-yil.
6. Q.Qahramonov. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. T., 2009-yil.

Maxsus adabiyotlar

1. X.Do'stmuhammad. "Beozor qushning qarg'ishi". Toshkent, 2006 yil.
2. Xurshid Do'stmuhammad. "Ijod- ko'ngil munavvarligi". Toshkent-"Mumtoz so'z", 2011-y
3. Nazar Eshonqul. "Yalpiz hidi". Toshkent
4. Nazar Eshonqul. "Shaftoli guli". Toshkent, "O'zbekiston", 2011-yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 6-jild,-T., 2004-yil,189-bet.
2. A.Navoiy."Xamsa".T., "Yangi asr avlodi"2010-yil.
3. U.Normatov.Yetuklik.-T., 1982., 20-bet.
4. V.G.Belinskiy.Adabiy orzular.-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti,1987-yil,11-b.

Gazeta va jurnallar

1. "Hurriyat". 2009-yil, 18-mart, 15-son.
2. "Sharq yulduzi". 2012-yil, №3, 120-bet
3. 2001-yil, 7-dekabr, №51 (3636) O'z AS
4. "Yoshlik". 3-son/2002 (185)
5. "Universitet ovozi" №6 (133) 2010-yil. Iyun
6. " Jahon adabiyoti". 2007-yil. Iyun
7. "Mohiyat". 2008-yil, 14-mart. 11 (396)

Internet manbalar

1. w.w.w. ref.uz.
2. w.w.w. ziyonet uz.
3. w.w.w. literature.uz.
4. W.W.W ziyouz.com
5. w.w.w.kitob.uz
6. w.w.w.adabiyot.uz

MUNDARIJA

KIRISH	
I BOB. Xurshid Do'stmuhammad hikoyanavisligida psixologizm muammosi	
1.1. Hikoyalarda ramziy obraz yetkchi unsur sifatida.....	
1.2. Hikoyalarda ruhiy holat talqini va yozuvchi mahorati.....	
II BOB. Nazar Eshonqul hikoyalarida bosh qahramon psixologiyasi	
2.1. Nazar Eshonqul asarlarida modernism milliy talqinda.. ..	
2.2. Xarakter yaratishda yozuvchi mahoratining o'ziga xosligi.....	
XULOSA	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	